

**Qabul sohalari:**

- Texnologiya va IT;
- Iqtisod va boshqaruv;
- Yurisprudensiya;
- Pedagogika;
- Tibbiyot, farmasevtika.

## **"ILM - FAN VA INNOVATION YUTUQLARNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI"**

**Respublika ilmiy-amaliy  
konferensiyasi 3-soni**

**20 May, 2022.  
"Sciences" OOO**

**Ro'yxatdan o'tish uchun  
rasmiy havola  
[www.uzbekconf.uz](http://www.uzbekconf.uz)**



**“Ilm - fan va innovatsion yutuqlarni  
rivojlantirishning dolzarb muammolari”  
Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi № 3.**

---

---

**«Актуальные проблемы развития науки и  
инновационные достижения»  
Республиканская научно-практическая  
конференция № 3.**

---

---

**Republican scientific-practical conference  
"Actual problems of development of science and  
innovative achievements" № 3.**

**Toshkent-2022**



**УҮК 001 (062)**

**КБК 72я43**

**“Ilm - fan va innovatsion yutuqlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari” [Toshkent;  
2022]**

**“Ilm - fan va innovatsion yutuqlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari”** mavzusidagi respublika 3-son ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami, 20 may 2022 yil. – Toshkent: «Sciences» MChJ, 2022.

Ushbu Respublika-ilmiy masofaviy konferensiya «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» va «Raqamli O‘zbekiston - 2030» davlat dasturlarida ko’zda tutilgan vazifa – ilmiy izlanish yutuqlarini amaliyatga joriy etish bilan fan sohalarini rivojlantirishga bag’ishlab o’tkazilgan.

Ushbu Respublika-ilmiy konferensiyasida ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan professor-o’qituvchi va talaba-o’quvchilar tomonidan tayyorlangan ilmiy tezislar kiritilgan bo’lib, unda ta’lim tizimida ilg’or zamonaviy yutuqlar, natijalar, muammolar, yechimini kutayotgan vazifalar va ilm-fan taraqqiyotining istiqboldagi rejalarini tahlil qilingan.

### **TASHKILIY QO‘MITA**

- S.Beknazarova - texnika fanlari doktori (Dsc), dotsent, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti, Audiovisual texnologiyalari kafedrasi professori, Tashkiliy qo‘mita a’zosi;
- A.Maxmudova - falsafa fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat tibbiyot instituti ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi mudiri, Tashkiliy qo‘mita a’zosi;
- Sh.Aktamov – SCIENCES MCHJ rahbari, Beruniy nomidagi Davlat stipendiyasi sohibi, Toshkent axborot texnologiyalar universiteti magistranti, Tashkiliy qo‘mita a’zosi;
- D.Gafurova - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktor PhD, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti, menejment va marketing kafedrasi dosenti;
- G.Nazarova - texnika fanlari nomzodi (Phd), dotsent, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti, Pochta aloqasi texnologiyalari kafedrasi, Tashkiliy qo‘mita a’zosi;

Q.Xalikov - tibbiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent, Samarkand Davlat tibbiyot universiteti biologik kimyo kafedrasi mudiri, tashkiliy qo‘mita a’zosi;

- I.Soliyev - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent, Namangan davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi mudiri, Tashkiliy qo‘mita a’zosi;
- F.Nishonov – (Phd) dotsent, Namangan muhandislik-qurilish institute, Muhandislik kommunikatsiyalari qurilish va montaji kafedrasi mudiri;

- L.Abduraximova - tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent tibbiyot akademiyasi, simulyatsion o'qitish kafedrasi dotsenti, Tashkiliy qo'mita a'zosi;
- D.Abdullayev - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Axborot xavfsizligini ta'minlash kafedrasi kata o'qituvchisi, Tashkiliy qo'mita a'zosi;
- L.Razikova -pedagogika fanlari nomzodi, Pedagogika va psixologiya kafedrasi dosenti. Samarkand davlat tibbiyot instituti, Tashkiliy qo'mita a'zosi;
- N.Jo'rayeva - fizika va matematika fanlari nomzodi, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Samarqand filiali "Tabiiy fanlar" kafedrasi dotsenti;
- L.Garifullina -tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent. Davolash ishi fakulteti pediatriya kafedrasi mudiri.

To'plamga kiritilgan tezislardagi ma'lumotlarning haqqoniyiligi va iqtiboslarning to'g'rilingiga mualliflar mas'uldir.

© Mualliflar jamoasi.

© Sciences.

**PageMaker\Верстка\Sahifalovchi: Abdulaziz Ravshanov**

Контакт редакций научных журналов  
ООО Sciences, город Ташкент, Учтепа 14, дом-  
7а.

Web <http://www.uzbekconf.uz/>; E-mail:  
[aktamovshohruhbekk@gmail.com](mailto:aktamovshohruhbekk@gmail.com)  
Тел: (+998-90) 620-08-08

Contact editors of scientific journals  
ООО Sciences, Tashkent city, Uchtempa 14, house-  
7a.

Web <http://www.uzbekconf.uz/>; E-mail:  
[aktamovshohruhbekk@gmail.com](mailto:aktamovshohruhbekk@gmail.com)  
Tel: (+998-90) 620-08-08



<b>1. Mamarajabov Odil Elmurzayevich, Abduvorisova Madina</b>	
“MULTFILM QAXRAMONLARINI 3D MODELLAR ASOSIDA YARATISH TEXNOLOGIYASI”.....	9
<b>2. Alibekov Sayfulla Abdug‘aniyevich</b>	
KOMPYUTER GRAFIKASIDA QO‘LLANILADIGAN TASVIR, FORMAT VA KO‘RINISHLAR.....	12
<b>3. Багбекова Лайло Кадирбергеновна</b>	
КОМПЬЮТЕР ГРАФИКАСИ ФАНИ МАШФУЛОТЛАРИНИ ОММАВИЙ ОЧИҚ ОНЛАЙН КУРСЛАР ЁРДАМИДА ТАШКИЛ ЭТИШДА “FLIPPED CLASSROOM” МЕТОДИДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	15
<b>4. Багбекова Лайло Кадирбергеновна</b>	
АХБОРОТЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ОММАВИЙ ОЧИҚ ОНЛАЙН КУРСЛАР АСОСИДА КОМПЬЮТЕР ГРАФИКАСИНИ ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА.....	18
<b>5. ERKAYEV XUSAN AXMADALIYEVICH</b>	
TA’LIM JARAYONIDA, MULTIMEDIYA TA’LIM MUHITIDA AXBOROTNI QAYTA ISHLASH VOSITALARI ISHLASHINI VZUALLASHTIRISH.....	22
<b>6. Mamarajabov Odil Elmurzayevich, Maxmudova Sadiyabonu Murodjon qizi</b>	
SCRATCH DASTURI VA UNING IMKONIYATLARI.....	25
<b>7. Муратов Эльвин Ильич</b>	
ВИРТУАЛЬНЫЕ ЛАБОРАТОРИИ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	28
<b>8. Mamarajabov Odil Elmurzayevich, Mexriddinova Nasiba Abduraim qizi</b>	
PROFESSIONAL TA’LIMIDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA FAKULTIV DARSLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI.....	31
<b>9. Примкулова Алима Асетовна</b>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИССКУСТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА – МАНИПУЛЯТОРА В ПРИОБРЕТЕНИИ ЗНАНИЙ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ...34	
<b>10. Mamarajabov Odil Elmurzayevich, Kurbonova Mahtuna Bakhtiyor qizi</b>	
ELEKTRON DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISHDA PEDAGOGIK DASTURLARNI QO‘LLANILISHI .....	37
<b>11. O‘roqova Sharofat Bahodirovna, Ravshanova Sadoqat Iftihor qizi</b>	
TA’LIMIY INTERNET RESURSLAR VA ULARDAN O’QUV JARAYONIDA FOYDALANISH.....	40
<b>12. O‘roqova Sharofat Bahodirovna, Shoraimova Muxlisa Tojiboy qizi</b>	
MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING ME’YORIY-HUQUQIY ASOSLARI...43	
<b>13. O‘roqova Sharofat Bahodirovna, Shukurova Zilola Shuhrat qizi</b>	
ELEKTRON O’QUV QO‘LLANMALARGA QO‘YILGAN TALABLAR ASOSIDA TA’LIM JARAYONINI TASHKILLASHTIRISH. ....	46
<b>14. O‘roqova Sharofat Bahodirovna, Toshkentboyeva Zaxro Muzaffar qizi</b>	
AXBOROT XAVFSIZLIGI TIZIMINI YARATISH VA SAQLASH BOSQICHLARI....49	
<b>15. Bagbekova Laylo Kadirbergenovna, Toshmatova Sadoqatxon Ubaydullaxon qizi</b>	
GRAFIK PAKETLARDAN FOYDALANIB RAQAMLI TASVIRLAR YARATISH.....52	
<b>16. Bagbekova Laylo Kadirbergenovna, Xosilova Aziza Oybek qizi</b>	
UCH O‘LCHOVLI GRAFIKANI YARATISHDA 3D MAX DASTURIDAN FOYDALANISH IMKONIYATI .....	56
<b>17. Bagbekova Laylo Kadirbergenovna, Yodgorova Madina</b>	
WEB DASTURLASH FANINI O‘QITISHDA ISPRING DASTURI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH .....	59
<b>18. Халдаров Хикматулло Ахматович</b>	

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ФОРМ ЭРГОНОМИЧЕСКОГО РАСПОЛОЖЕНИЯ ОБУЧАЕМЫХ В АУДИТОРИИ.....	62
<b>19. Халдаров Хикматулло Ахматович</b>	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТСО В ПОКУПАНИИ ЗНАНИЙ С ПОМОЩЬЮ ЭРГОНОМИКИ .....	66
<b>20. R. Muhammadjonova</b>	
TOPINAMBURNING (HELIANTHUS TUBEROSUS L.) XALQ TABOBATI VA AMALIY TIBBIYOTDA QO`LLANILISHI.....	71
<b>21. Ташихамедова Феруза Батирджановна</b>	
Использование мнемотехники для развития речи детей дошкольного возраста .....	73
<b>22. D.K.Xakimjanova, Sh.A.Ismoilov</b>	
KORXONADA KADRLARNI ISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA MALAKASINI OSHIRISH.....	80
<b>23. Исламова Х.З. Дусмухамедова Д.Р.</b>	
КРЕАТИВНОСТЬ В НАРОДНОМ ТВОРЧЕСТВЕ.....	85
<b>24. Jumayev Bobur Ozod o'g'li</b>	
YASSI DEVOR SUVLI VA TUPROQ OSTI ISSIQLIK AKKUMULYATORLI GELIOTEPLISA-CHORVACHILIK KOMPLEKSIDAGI TEPLOFIZIK JARAYONLARNI TEKSHIRISH .....	89
<b>25. Abdullayev Og'abek</b>	
VIRTUAL STUDIYALAR HAQIDA. ZAMONAVIY TELEVIZION KO'RSATUVLAR UCHUN VIRTUAL STUDIYALARNI LOYIHALASHTIRISH .....	93
<b>26. Н.Ш.Маннапова</b>	
талабаларда соғлом турмуш тарзи кўникмаларини шакллантириш.....	98
<b>27. Karimova Inoyatxon</b>	
kichik maktab yoshi bolalarida kreativ tafakkurni rivojlanish usullari.....	100
<b>28. Abdullayeva D.N.</b>	
GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA NOSTANDART TEST TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH.....	107
<b>29. Janzakov A.B, Usmonova M.</b>	
GEOGRAFIYA TA'LIMIDA VOQEVA VA HODISALARNI TASVIRLAYDIGAN O'QUV VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI.....	110
<b>30. Abdullayeva D.N. Komilov J.N.</b>	
Quchilarning geografik xaritalar bilan ishlash ko'nigmalarini baholash.....	113
<b>31. Пулатова Нуруллаевна, Абдусафиевна, Баходирхонова Мунаввархон</b>	
<b>Мухаммадшокирхон кизи, Юнусова Эъзоза Ойбек кизи</b>	
АНАТОМИЯ В СИСТЕМЕ БИОЛОГИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН.....	116
<b>32. Абидова Садокат, Аннакулова Раъно, Нуруллаева Дурдона, Мирхосилова Саодат</b>	
ФОРМИРОВАНИЕ ЗООЛОГИИ КАК НАУКИ И ЕЁ МЕСТО В СИСТЕМЕ СОВРЕМЕННЫХ НАУК .....	119
<b>33. Usmonov Sardor</b>	
Purchasing logistics in the field of agriculture methods of organization.....	122
<b>34. Usmonov Sardor</b>	
PURCHASING LOGISTICS IN AGRICULTURE METHODS OF ORGANIZATION.....	124
<b>35. Сайдов Жасур Сайдович</b>	
ПРОЕКТИРОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ КОМПЬЮТЕРНЫХ СЕТЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	127
<b>36. Ahmedova Durdonahon</b>	
O`ZBEKİSTONDA ELEKTRON KUTUBXONALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI..	129
<b>37. SH.Isaeva</b>	
EPIK RIVOYA VA HARAKTERLAR RUXIYATI SINTEZI.....	132
<b>38. I.B.Mattiev</b>	



SOG'LOM TURMUSH TARZI VA UNI KUNDALIK ODATGA AYLANTIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.....	133
<b>39. Raxmatullayeva Anor Qayrullayevna</b> BIOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILAR IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHDA EKSKURSIYALARING O`RNI .....	137
<b>40. Raxmatullayeva Anor Qayrullayevna</b> BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TEXNOLOGIYANING AHAMIYATI .....	142
<b>41. Hamidova Hulkaroy Shodijonovna</b> BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJODIY TAFAKKURNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK PISIXOLOGIK ASOSLARI .....	147
<b>42. Bahromov Ramziddin Faxriddin o'g'li</b> AVTOMATLASHTIRILGAN AXBOROT TIZIMI BPMN SXEMASI.....	150
<b>43. Turakhujaev Zayniddin</b> THE CONDITIONS OF ECONOMIC DEVELOPMENT MODERN VIEWS OF EMPLOYMENT .....	153
<b>44. Azimova Ozoda Talatovna, Xalimova Zamira Yusupova</b> РОЛЬ СОСУДИСТОГО ЭНДОТЕЛТАЛЬНОГО ФАКТОРА РОСТА -А В РАЗИТИИ АГРЕССИВНЫХ АДЕНОМ ГИПОФИЗА .....	156
<b>45. Rahimova Umidaxon Sotvoldiyevna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.....	157
<b>46. Azimova Hilolaxon Komiljonovna</b> BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARGA ALGEBRA ELEMENTLARINI O'RGATISH .....	160
<b>47. Ahmadaliyeva Ra'noxon Ahmadaliyeva</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQ O'G'ZAKI IJODINING TARBIYAVIY AHAMIYATI .....	164
<b>48. Rustam Pardaboyev</b> NEED DANCE PROMOTION?! .....	166
<b>49. Rajabova Munisxon Rajab qizi</b> Pedagogikaning maqsadi, vazifalari va ta'lrim tizimidagi ahamiyati .....	168
<b>50. Sirojov D.K</b> TILLARGA IXTISOSLASHMAGAN, YA'NI NOFILOLOG TA'LIM YO'NALISHIDAGI OLIY O'QUV YURTALARIDA CHET TILINI O'QITISHNING MAQSADI .....	172
<b>51. Тухтапулотов Тимур Тахир угли</b> ИССЛЕДОВАНИЕ МЕТОДА ОЦЕНКИ ПРОПУСКНОЙ СПОСОБНОСТИ В ШИРОКОПОЛОСНЫХ СЕТЯХ ДОСТУПА .....	176
<b>52. Narzullayeva Sitora Sayfullo qizi</b> THE HISTORY AND IMPORTANCE OF THE FOLKLORE-ETHNOGRAPHIC ENSEMBLE" CHAVQI " TODAY .....	179





**“Ilm - fan va innovatsion yutuqlarni rivojlantirishning  
dolzarb muammolari”**

**MULTFILM QAXRAMONLARINI 3D MODELLAR ASOSIDA  
YARATISH TEXNOLOGIYASI**

**Mamarajabov Odil Elmurzayevich**

Nizomiy nomidagi TDPU, o'qituvchi

**Abduvorisova Madina**

Nizomiy nomidagi TDPU, talaba

**Annatatsiya** Hammamiz ertakning muhitiga botadigan yorqin, mehribon multfilmlarni tomosha qilishni yaxshi ko'ramiz. Ammo bu multfilmlar qanday yaratilgan? Bu uzoq va mashaqqatli jarayon bo'lib, unda juda katta mutaxassislar jamoasi ishtirok etadi. Ammo ko'plab dasturlar mavjud, ular yordamida noyob belgilar va qiziqarli hikoyalar chizilgan o'z multfilmini yaratishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar** Autodesk Mayya, MODO, 3D multfilmlarni, Toon Boom Harmony, CrazyTalk, Anime Studio Pro, Qalam

**Autodesk Mayya.** Uch o'lchovli rasmlar va animatsiyalar bilan ishlash uchun eng kuchli va ommabop dasturlardan biri bu Autodesk Mayya. Ushbu dastur ko'pincha kino sohasi mutaxassislari tomonidan qo'llaniladi.

Autodesk Maya-da juda ko'p vositalar to'plami mavjud, shuning uchun u juda mashhur. Uning yordamida siz haykaltaroshlik vositalari yordamida haqiqiy uch o'lchovli modellarni yaratishingiz mumkin. Shuningdek, dastur materialarning xatti-harakatlarini hisoblab chiqadi va yumshoq va qattiq jismlarning dinamikasini yaratadi.

Autodesk Maya-da siz haqiqiy animatsiya va harakatlar bilan belgilar yaratishingiz mumkin. Siz har qanday tananing elementiga modelning har qanday elementini tayinlappingiz mumkin. Belgining har bir a'zosi va har bir bo'g'inini nazorat qila olasiz.

Dasturni o'zlashtirish juda qiyin bo'lsa ham, bu juda ko'p miqdordagi o'quv materialining mavjudligi bilan qoplanadi.

Autodesk Maya - bu 3D multfilmlarni yaratishda eng zamonaviy dastur.

**MODO.** Tezligi bilan mashhur bo'lgan kompyuterda multfilmlarni yaratish uchun yana bir kuchli dastur. MODO modellashtirish va haykaltaroshlik uchun ko'plab

vositalarga ega, shuningdek siz har doim o'z materiallari bilan to'ldirishingiz mumkin bo'lgan to'liq standart kutubxonalarga ega.

MODO ning o'ziga xos xususiyati dasturni o'zingiz uchun to'liq sozlash qobiliyatidir. Siz o'zingizning shaxsiy vositalar to'plamingizni yaratishingiz va ular uchun tezkor tugmachalarni o'rnatishingiz mumkin. Siz shuningdek o'z shaxsiy cho'tkalarni yaratishingiz va ularni kutubxonalarda saqlashingiz mumkin.

Agar biz modellarning vizualizatsiyasi haqida gapiradigan bo'lsak, unda tasvirlarning sifati MODO Autodesk Mayadan orqada qolmaydi. Hozirgi vaqtda dasturda haqiqiy rasmlarni yaratish uchun eng yaxshi vizualizatorlardan biri mavjud. Xizmat ko'rsatish avtomatik ravishda yoki foydalanuvchi tomonidan boshqarilishi mumkin.

**Toon Boom Harmony** - bu animatsion dasturlar orasida shubhasiz etakchi. Dastur asosan 2D grafikasi bilan ishlashga mo'ljallangan va bu ishni osonlashtiradigan juda ko'p qiziqarli vositalarga ega.

Masalan, Suyaklar kabi vosita belgi harakatlarini yaratishga va tananing har bir elementini boshqarishga imkon beradi. Uning yordamida siz vaqtini tejashga imkon beradigan belgini alohida bo'limlarga ajratmasdan jonlantirasiz.

Dasturning yana bir xususiyati - haqiqiy qalam rejimi, unda siz chizilgan rasmlarni qog'ozdan skanerlashingiz mumkin. Baribir, Toon Boom Harmony-da rasm chizish jarayoni ancha osonlashdi. Masalan, chiziqlarni avtomatik ravishda tekislash va birlashtirish, bosimni boshqarish va har bir chiziqni sozlash qobiliyati chindan ham yuqori sifatli chizmalar yaratishga imkon beradi.

**CrazyTalk** - bu yuz ifodalarini yaratish uchun qiziqarli dastur bo'lib, uning yordamida istalgan tasvir yoki rasmni "gapirish" mumkin. Dasturning soddaligiga qaramay, u ko'pincha professionallar tomonidan qo'llaniladi.

CrazyTalk ko'p funksiyalarga ega emas. Bu erda siz shunchaki rasmni yuklaysiz va uni animatsiyaga tayyorlaysiz. Agar sizda mos rasm bo'lmasa, unda dastur veb-kameradan fotosurat olishni taklif qiladi. Keyin audio yozuvni yuklab oling, videoga joylashtiring va dastur o'zi nutq animatsiyasini yaratadi. Ovozni mikrofondan ham yozib olish mumkin. Bajarildi!

Dasturda standart kutubxonalar mavjud bo'lib, unda siz tayyor modellarni, audio yozuvlarni, shuningdek tasvirga qo'shib qo'yiladigan yuz elementlarni topishingiz mumkin. Kutubxonalar kichik bo'lsa-da, siz ularni o'zingiz to'ldirishingiz yoki Internetdan tayyor materiallarni yuklab olishingiz mumkin.

**Anime Studio Pro.** Bu erda siz o'zingizning to'liq huquqli 2D multfilmingizni yaratishingiz mumkin. Dasturning o'ziga xos xususiyati shundaki, u foydalanuvchining ishini engillashtirishga harakat qiladi. Buning uchun bir qator maxsus vositalar va funktsiyalar mavjud.

Masalan, har bir belgini qo'l bilan chizishni xohlamasangiz, siz standart muharrirdan foydalanishingiz va belgi tayyor elementlardan yig'ishingiz mumkin. Shuningdek, muharrirda yaratilgan belgini qo'lida tugatishingiz mumkin.

Shuningdek, Anime Studio Pro-da "Suyaklar" asbobi mavjud bo'lib, unda siz belgilar harakatlarini yaratishingiz mumkin. Aytgancha, dasturda ba'zi harakatlar uchun tayyor animatsion skriptlar ham mavjud. Masalan, qadam animatsiyasini chizishingiz shart emas, chunki siz tayyor skriptni ishlatishingiz mumkin.

Umuman olganda, dastur allaqachon animatsiya va shunga o'xshash dasturlar bilan shug'ullangan foydalanuvchilar uchun javob beradi. Ajam foydalanuvchi uchun bir nechta darsliklarni topishingiz mumkin.

**Qalam.** Qalam, ehtimol, multfilmlarni chizish uchun eng oson dastur. Paint-dan tanish interfeys animatsiyalar yaratishni osonlashtiradi. Bu erda siz yuqorida ko'rsatilgan dasturlar singari turli xil vositalarni topa olmaysiz, lekin albatta tezda unga o'rjanib qolasiz.

Dastur ko'p qavatlari va freym-by-kadrlar animatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi. Ya'ni, har bir kvadratni qo'l bilan chizishingiz kerak. Animatsiya yaratish uchun vaqt paneli slayderini siljiting va kerakli freymni tanlang

Albatta, qalam katta loyihalar uchun mos emas, ammo bu erda kichik qisqa multfilmlarni chizish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Elmurzayevich, M. O. Cloud Technology to Ensure the Protection of Fundamental Methods and Use of Information. International Journal on Integrated Education, 3(10), 313-315.
2. Bahadirovna, S. D. (2022, February). Enrich educational content through multimedia resources using digital technologies. In Conference Zone (pp. 220-221).
3. Urokoval, S. B. (2020). Advantages and disadvantages of online education. ISJ Theoretical & Applied Science, 9(89), 34-37.
4. Bagbekova, L. (2020). Distance education system as a new form of teaching. Theoretical & Applied Science, (9), 12-14.
5. Kadirbergenovna, B. L. (2022, February). Massive open online course basic requirements for digital educational resources. In Conference Zone (pp. 187-190).
6. Абдурахманова, Ш. А. (2017). Развитие педагогической науки в Республике Узбекистан. Молодой ученый, (1), 428-430.
7. Mamarajabov O.E. Benefits of Using Information Technology in the Education System // Vocational Education. Tashkent, 2019. No.1. P. 55-59.
8. Sh.A.Abduraxmanova, & X. Jo'rayev. (2022). Modern web technologies used in professional education. Conference Zone, 178–179. Retrieved from

# **KOMPYUTER GRAFIKASIDA QO‘LLANILADIGAN TASVIR, FORMAT VA KO‘RINISHLAR**

**Alibekov Sayfulla Abdug‘aniyevich – Nizomiy nomidagi TDPU “Axborot  
texnologiyalari” kafedrasi dotsenti**

Grafik formatlarni moslash Veb-sahifalar yaratishda turli xildagi illustratsiyalar ishlatib turiladi. Ularga quyidagilar kiradi: logotip, tugma, banner, harakatlanuvchi tasvir, fototasvir, diagramma va grafiklar. Odatda, grafik fayllar katta o‘lchamga ega bo‘ladi. Masalan, BMP, TIFF yoki PCX formatlaridagi grafik fayllar samarasiz kodlanadi va tasvirni to‘g‘ri yetkazishga kerakli o‘lchamdan ham katta o‘lchamga ega bo‘lishi mumkin. Foydalanuvchilarning katta qismi tarmoqqa modemlar orqali ulanadi. Foydalanuvchi modemlarining provayderlar bilan ulanish tezligi 56 KBit/s dan oshmasligini hisobga olgan holda, bunday grafik fayllardan foydalanish maqsadga muvofiq emas, chunki sahifalar yuklanish vaqtin chon cho‘zilib ketadi. Sahifalarni tarmoqda nashr qilishga tayyorlash jarayonida – illustratsiyalar hajmini maksimal darajada kamaytirishdir, chunki grafik fayllar hajmi sahifaning umumiy hajmini belgilaydi, bu esa, o‘z navbatida, uning yuklanish tezligiga ta’sir qiladi.

Tarmoqdagi grafikaning yuklanish vaqtini qisqartirish uchun grafik fayllarni siquvchi juda ko‘p sonli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Grafik ma’lumotlarni siquvchi texnologiyalar ikki xilga bo‘linadi: tasvir sifatining yo‘qolishiga olib keladigan va tasvir sifatini saqlab qoluvchi. Siqish texnologiyasining birinchi tipi bu jarayon vaqtida grafik fayllarning ba’zi ma’lumotlarini yo‘qotadi, bu bilan u tasvir sifatiga zarar yetkazadi; ikkinchi xilda esa tasvir sifatiga ta’sir ko‘rsatmagan holda grafik fayllarni siqadi. Format va grafik fayllarni siqish texnologiyasini to‘g‘ri tanlab, boshlang‘ich tasvir sifatini buzmagan holda 10–50 martagacha kichraytirish mumkin, ya’ni siqilgan va siqilmagan tasvirlar orasidagi farqni inson ko‘zi bilan aniqlab bo‘lmaydi. Hozirgi kunda tarmoqlarda ikki asosiy grafik format qo‘llanadi: GIFva JPEG (yoki JPG). Bu grafik formatlarda illustratsiyalangan sahifalarni barcha keng tarqalgan brauzerlar tushunadi va to‘g‘ri tasvirlaydi. Bu formatlarning har biri o‘z ustunliklari va kamchiliklariga ega, bu ularning qo‘llanish sohasini aniqlaydi, ular orasidagi farqni tushunish, o‘z navbatida, sayt sahifalarini grafik bezash ishlarini osonlashtiradi.

Grafik formatlar GIF (Graphics Interchange Format) grafik formati – tarmoqdagi eng keng tarqalgan grafik format, u tarmoqda birinchi bo‘lib paydo bo‘lgan. Tarmoqdagi rangli tasvirlar va fonlarning ko‘p qismi GIF formati fayllaridir. GIF tasvirni siqishga imkon beradi, tasvirlarning rang palitrasи 256 yoki undan kamroq rangni saqlaydi. Bu siqish jarayoni sifatga ta’sir qilmaydi, ya’ni siqishdan keyin olingan tasvir boshlang‘ichi kabi bo‘ladi. Agar tasvir 256 dan ortiq rangga ega

bo'lsa, ularning soni chegaralangan qiymatgacha qisqartiriladi. Shuni aytib o'tish kerakki, ranglar sonini qisqartirish bosqichida tasvir sifatiga zarar yetkazilishi mumkin. GIFda boshlang'ich tasvirni siqishda faylning o'lchamini faqatgina palitradagi ranglar sonini 2 dan 256 gacha chegaralagan holda kichraytirish mumkin. Shunday qilib, GIF chegaralangan sonli ranglardan tarkib topgan grafik fayllarni siqishda qo'llanilsa, juda yaxshi natijalarga erishiladi.

Bu grafik format tarmoqda logotip, matn, diagramma, grafik va chizmalarining tasvirini taqdim qilishda juda katta imkoniyatga ega. U ishlab chiqaruvchilar Lempel, Ziv, Welch familiyalarining birinchi harflari bilan nomlangan LZWsiqish usulini qo'llaydi. Bundan tashqari, rangning tiniqligi (transparency), satrlararo yuklanish (interlaced) va animatsiya kabi yangi imkoniyatlar bilan toidirilgan. Rangning tiniqligi orqali har qanday fonga qo'ysa bo'ladigan ixtiyoriy tasvirlar yaratish mumkin. GIF89a da oddiy animatsiyaning qo'llanilishi tasvirlar ketma-ketligini berilgan vaqt oraligida siklik qaytarishi mumkin. JPEG (Joint Photographic Experts Group) grafik formati (qisqartirilgan holda JPG) ko'p rangli tasvir fayllarini tarmoqda ishlatish uchun mo'ljallangan bo'lib, foydalanish darajasi bo'yicha ikkinchi o'rinda turuvchi grafik format hisoblanadi. JPEG rang palitrasи 16 777 216 (True Color) tagacha bo'lgan rangni saqlaydigan tasvirlarni siqish imkoniyatini beradi. Bunday siqish tasvirning sifati yo'qolishi (lossy compression) hisobidan sodir bo'ladi. JPEGda boshlang'ich tasvirni siqishda «siqish darajasi»ni juda keng chegaralarda boshqarish mumkin. Bu formatda «siqish darajasi» tasvir sifatining yomonlashuviga olib kelishini yodda tutish kerak, siqish darajasi qancha yuqori bo'lsa tasvirning ko'rinishi boshlang'ich tasvirga nisbatan shuncha ko'p yomonlashadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, JPEG juda ko'p ranglarni, mayda rangli detallarni saqlovchi fototasvirlarning sifatli grafik fayllarini siqish uchun mos keladi. Bu format ko'p hollarda tarmoqda sifatli fototasvir va illustratsiyalarni taqdim qilish uchun qulay hisoblanadi. Afsuski, JPEG ranglarning tiniqligini qo'llamaydi, bu esa uning qo'llanish sohasini qisqartiradi. Tarmoqda keng tarqalgan bu ikkala grafik fayllar formati o'zining rivojlanishini davom ettirmoqda, ya'ni grafikaning yuklash jarayonini osonlashtirish maqsadida yuklanish tugashiga qadar past joizlikda boshlang'ich tasvir variantlarini ko'rsatish imkoniyatini beruvchi texnologiyalar ishlab chiqilgan. JPEGda bunday maqsadlarga erishish uchun bosqichma-bosqich algoritm o'rnatilgan (progressive JPEG). Bu algoritma asosan dastlab past sifatli tasvir, keyin esa uning ustiga to'liq asosiy tasvir yuklanadi. PNG grafik format Veб-sahifalarda tasvir va grafiklarni joylashtirish uchun maxsus yaratilgan siqish formati bo'lib Deflate siqish algoritmidan foydalanadi. Bu format GIF y a JPEG Giovmailarining afzallik tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan. TIF grafik format Aldus kompaniyasi tomonidan PhotoStyler dasturi uchun ishlab

chiqilgan bo‘lib «tegni tasvirlaydigan fayl» ma’nosini anglatadi. Bu grafik format yetarlicha murakkab bo‘lsa ham uning strukturasi ma’lumotlarni yozish va tasvirni kengaytirishda katta imkoniyatga ega. Tasviming raqamli ma’lumotlarini ifodalovchi barcha axborotlar boshqa ko‘pgina format fayllari singari uning boshlang‘ich qismida emas, balki maxsus bloklarda, tasvir parametrlarining ichki belgilashlarida saqlanadi. Undadan ortiq turli teglar mavjud bo‘lib ularning qo‘llanilishi ko‘pgina qo‘srimcha funksiyalarni tashkil etish imkoniyatini beradi. PCX grafik format Zsoft firmasi tomonidan ishlab chiqilgan va Paintbrush hamda PhotoFinish dasturlarida qo‘llaniladi. Bu grafik faylning tuzilishi sodda va ranglar palitra hajmi bo‘yicha chegaralangan bo‘lishiga qaramasdan yaqin vaqtgacha ommabop sanalib kelingan. BMP grafik formati Windows operatsion tizimi uchun Microsoft firmasi tomonidan ishlab chiqilgan. U favqulotda sodda strukturani ifodalaydi va uncha katta bo‘lmagan piktogramma-tasvirlarning namoyish etilishini izohlash uchun xizmat qiladi. Ushbu grafik format interfeyslarda keng qo‘llaniladi. Grafik formatlarni taqqoslash va ularga qo‘yiladigan talablar GIF va JPEG grafik formatlari bilan ishslashda quyidagilarni yodda tutish muhim:

1. Natijalanuvchi GIF fayl o‘lchami palitradagi ranglar soniga bog‘liq. Palitradagi ranglar qancha kam bo‘lsa, siqish darajasini shuncha katta berish mumkin va yakuniy fayl o‘lchami ham shuncha kichik bo‘ladi.
2. Natijalanuvchi JPEG fayl o‘lchami tasvirning mayda detallar bilan toidirilganligiga bog‘liq bo‘ladi. Ular qancha ko‘p bo‘lsa, siqish darajasini shuncha katta berish mumkin, binda yakuniy fayl o‘lchami ham shuncha kichik bo‘ladi.
3. Hech qachon JPEGda tasvirning oraliq variantlarini saqlamang, nusxalarni boshqa formatlarda saqlang. Biror bir o‘zgartirish kiritish kerak bo‘lsa, o‘sha nusxalarni ishlating.
4. Hech qachon tasvirni GIFdan JPEGga va aksincha, o‘tkazmang. Bunday harakatlarda to‘g‘ri siqish imkoniyati kamayadi, tasvirning va rang berishning yomonlashuvi yuz beradi.
5. Chekli sondagi ranglardan foydalanilgan, biroq bir xil rangli sohalarning kattaligi va bir rangdan ikkinchisiga o‘lishda chegaralarning aniqligini saqlovchi tasvirlarni GIF texnologiyasi orqali siqish JPEG dagiga qaraganda yaxshiroq va natijaviy fayllar kichik o‘lchamda bo‘ladi. Agar bunday tasvirlar JPEGda siqilsa, ranglar xira bo‘ladi va natijaviy fayl o‘lchami kattaroq bo‘ladi.
6. Ko‘p sonli mayda detallardan tashkil topgan fototasvirlar va plutonli tasvirlarni JPEG texnologiyasi orqali siqish GVRlagiga qaraganda yaxshiroq va natijaviy fayllar kichik o‘lchamda bo‘ladi. Agar bunday tasvirlar GIF da siqilsa, ranglar xira bo‘ladi va natijaviy fayl o‘lchami kattaroq bo‘ladi.



## КОМПЬЮТЕР ГРАФИКАСИ ФАНИ МАШГУЛОТЛАРИНИ ОММАВИЙ ОЧИҚ ОНЛАЙН КУРСЛАР ЁРДАМИДА ТАШКИЛ ЭТИШДА “FLIPPED CLASSROOM” МЕТОДИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Багбекова Лайло Кадирбергеновна  
Низомий номидаги ТДПУ, ўқитувчи

Мамлакатимизда рақамли иқтисодиётни фаол ривожлантириш, барча тармоқлар ва соҳаларда, энг аввало, давлат бошқаруви, таълим, соғлиқни сақлаш ва қишлоқ хўжалигига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш бўйича комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли Ўзбекистон – 2030“ стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги Фармонида рақамли технологиялар асосида мамлакатимизда рақамли таълим олишни такомиллаштириш билан бирга таълим жараёнларини рақамли технологиялар асосида индивидуаллаштириш, масофавий таълим хизматларини ривожлантириш, вебинар, онлайн, «blended learning», «flipped classroom» технологияларини амалиётга кенг жорий этиш вазифалари белгиланган.

**Педагогик технологиянинг асосий моҳияти ва ютуғи шундан иборатки, таълимда талабаларни қизиқтириб ўқитиш ва билимларни тўлик ўзлаштиришга эришишдир. Таълимда берилаётган аксарият билимларни талабаларнинг кўпчилик қисми пухта ўзлаштириши педагогик технологияни жорий этишнинг асосий мақсади ҳисобланади.**

Ахборот коммуникация технологиялари ривожланган бугунги кунда дарс жараёнларини ташкил этишда фақатгина электрон таълимдан фойдаланиш ёки анъанавий таълимдан фойдаланиш ёхуд илғор таълим технологияларидан фойдаланиш юқори самара бермайди. Сабаби ҳар бир таълим турининг афзалликлари ва камчиликлари мавжуд бўлади. Шунинг учун бу таълим турларини биргаликда қўллаш ҳозирда таълим соҳасида яхши самаралар бермоқда ва бу аралаш таълим деб юритилмоқда.


Биз ушбу тадқиқот ишимизда оммавий очиқ онлайн курс ёрдамида ўқув машғулотларини ташкил этиш учун аралаш таълимнинг “Flipped classroom” технологиясини таклиф этамиз.

Flipped classroom технологияси – ўқув вақти индивидуал электрон таълим ва ўқитувчи билан биргаликда синфда ташкил этилган таълимга тақсимланади. Бунда назарий материаллар индивидуал тарзда масофадан туриб ўқилади ва

аудиторияда ўқитувчи ҳамкорлигига ўзаро музокаралар асосида материал мустаҳкамланади.

Flipped classroom - бу аралаш таълимнинг бир шакли бўлиб, таълим олувчиларни пассив, зерикарли ҳаракатини янги кўринишга ўтказувчи таълим концепцияси. Ушбу таълимда таълим олувчи уй вазифаси сифатида видео-маъruzani тармоқ орқали қўради ва назарий материални мустақил ўзлаштиради, аудиторияда эса ўқитувчи билан ҳамкорликда амалий топшириқларни бажаради.

Flipped classroom технологияси ёрдамида дарсларни ташкил этишда ўқитувчи бир нечта видео-маъruzalarни тайёрлайди ва уларни тармоққа ёки бирор-бир тизимга жойлаштиради, таълим олувчилар эса уйларида ўқитувчи томонидан тайёрланган видео-маъruzani қўради ва мавзуни ўзлаштиради. Бу эса видео-маъruzani шошилмасдан, такroran қўриш имкониятини беради. Агар уйда интернет билан ишлашга имкон бўлмаса, у ҳолда таълим муассасаларида ушбу имконият билан таъминланади. Аудиториядаги вақтда эса мавзу бўйича юзага келган саволлар, фикрлар ҳақида ўқитувчи билан музокара қиласди. Олинган билимни такомиллаштириш учун турли назорат топшириқларини бажаради(1-расм).



*1-расм. Ўқитишининг анъанавий шакли ва Flipped classroom технологиясида талаба фаолияти.*

Замонавий ўқитувчи дарс жараёнларини Flipped classroom технологияси ёрдамида ташкил этиши учун қуидагиларга тайёр бўлиши зарур:

- таълимни ахборотлаштириш дастурига асосланган ўкув-тарбия жараёнини ташкил этиш;



- касбий фаолиятда ахборот технологиялари ва ахборотлаштириш мұхитини ишлатиш;
- таълимнинг аудиовизуал, электрон дидактик ва педагогик дастурий воситаларини ишлаб чиқиш;
- инновацион педагогик технологияларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш, ахборот технологиялари базасига асосланган таълимнинг методик тизимини такомиллаштириш;
- таълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи масалаларни ечиш учун электрон ахборот таълим ресурсларини ишлаб чиқиш;
- таълим жараёнларининг ахборот-методик таъминотини автоматлаштириш соҳасида малака ошириш, ҳамда ўқув тарбия жараёнининг турли субъектлари билан ҳамкорлик ўрната олиши;
- таълим жараёнини баҳолашда ахборотлаштиришнинг техник воситаларидан фойдаланиш;
- ахборот-таълим мұхитини лойиҳалаш ва ишлаб чиқиш.

Умуман олганда, Flipped classroom технологияси таълим муассасалари учун қуидаги имкониятларни бериши мүмкін:

1. *Ўқув жараёнининг мослашуучанлиги.* Бу ўқитувчилар ва талабаларнинг ҳар қандай сонини ўз ичига олиши мүмкін. Ўқитувчилар бошқа бир нүктада туриб дарс машғулотларини ўтказиши мүмкін. Талабалар эса электрон дарсликлар ёки онлайн таълим тизими материалларидан исталган вақтда, исталган жойда фойдаланишлари мүмкін.

2. *Ўқитишининг очиқлигиги.* Имтиҳонларни компьютерда ўтказилиши баъзи камчиликларни бартараф этади ҳамда очиқликни таъминлайди. Бундан ташқари, алоқа хизматлари талабалар ва ўқитувчиларга доимий равищда алоқа қилиш имконини беради, бу эса бир-бирини яхшироқ тушунишга ёрдам беради.

3. *Индивидуал ёндашув.* Ўқитувчилар талабаларнинг шахсий хусусиятларидан келиб чиқиб, ўқув материалларининг ҳажмини ўзгартыриши мүмкін. Турли моделларнинг комбинацияси ҳар бир талабани ўзи қизиқадиган йўналишда тўлиқ ривожланишига имкон беради.

4. *Мустақил ишишни ривожлантириши.* Талаба ўз вақтини самарали бошқариши, режали ва интизомли бўлишни ўрганади. Акс ҳолда, тескари таълимда муваффақиятга эришиб бўлмайди.

5. *Мотивацияни ошириши.* Кўпчилик гаджет ва турли хизматларни ёқтиради. XXI асрда инсонлар нафақат ўрганишни, балки дарсларни интерактив ва қизиқарли ташкил этилишини исташади ва вебинарларда ўз хоҳишлиари билан

иштирок этишади, форумларда баҳс-мунозаралар олиб боришади, турли дастурларни ўзлаштиришади.

Ҳар бир машғулот учун мўлжалланган технологик харита ўқитувчидан ижодкорлик, ўз бурчига масъулият билан ёндашувни талаб қиласди. Ҳар бир ўқув машғулоти ўқитувчининг ўзига хос хусусиятга эга бўлган, талабанинг эҳтиёжидан келиб чиқсан, маълум бир мақсадга йўналтирилган, олдиндан лойиҳалаштирилган, ижобий натижа беришга кафолатланган ижодий асар бўлиши керак.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон фармони LEX.UZ/DOCS/4545884
2. Kadirbergenovna, B. L. (2022, February). Massive open online course basic requirements for digital educational resources. In Conference Zone (pp. 187-190).
3. Bagbekova, L. (2019). Opportunities of massive open online courses. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
4. Chambers, W.N. Creative Scientist of Today / W.N. Chambers // Science. – L., – Vol. 145.

## АХБОРОТЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ОММАВИЙ ОЧИҚ ОНЛАЙН КУРСЛАР АСОСИДА КОМПЬЮТЕР ГРАФИКАСИНИ ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА

**Багбекова Лайло Кадирбергеновна**  
Низомий номидаги ТДПУ, ўқитувчи

Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида “...олий таълим мазмунини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларининг барқарор ривожланишига муносиб ҳисса қўшадиган, меҳнат бозорида ўз ўрнини топа оладиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш” масаласи назарда тутилган.

Барча соҳаларда бўлгани каби таълим соҳасига ҳам кундан кун янги ўзлаштирилиши лозим бўлган билимларнинг кириши соҳа мутахассисларига катта маъсулият юкламоқда. Чунки, бўлажак мутахассисга замонавий жаҳон стандартлари талабларига мос келадиган билимларни бериш, уларни мустақил



фикрлайдиган, ўз соҳасининг етук мутахассиси сифатида тайёрлашда ўқитувчиларнинг ўрни бениҳоя каттадир. Бу, ўз-ўзидан ўқитувчиларни изланишга, ўз устида тинмай меҳнат қилишга, янгиликларни тез ўзлашириб, талабаларга етказишларида сидқидилдан меҳнат қилишларини талаб этади. Айниқса, ахборот технологиялари соҳасида кундан-кунга кўпайиб бораётган ахборотларни бўлажак мутахассисларга етказиш, уларни тез ўзлаширишга йўналтириш ва ёшларга етказишлари учун лозим бўлган билимларни тўла, мукаммал эгаллаган ва уларни амалиётда қўллаш бўйича билим, кўникма ва малакаларга эга бўлишлари шартдир.

Хозирги кунда ахборот технологияси республикамизнинг деярли барча соҳаларини кенг қамраб олиши натижасида улардан самарали фойдаланишни тақозо этади. Йилдан-йилга ахборот технологиялари ва унинг техник воситалари ривожланиб, мукаммаллашиб бормоқда-ки, интернет тармоғи кириб бормаган ва қўлланилмайдиган соҳани топиш мушкул бўлиб бормоқда.

Хозирги кунда таълимнинг мазмуни ва сифати масалалари жамиятда устувор йўналиш сифатида қаралиб, дунёнинг ривожланган мамлакатлари таълим тизимида ахборот технологиялардан фойдаланишга алоҳида эътибор берилмоқда. Бу борада таълимни ривожлантириш, унинг самарадорлигини ошириш йўллари изланмокда, таълимга ахборот технологияларни жорий этиш тадқиқотлари такомиллашибирмоқда. Ахборот технологияларни ўкув жараёнинга жорий этиш асосида ахборотлашибирмоқда, мультимедиа ва тармоқ тизимлари ёрдамида ўкув жараёнини ташкил этиш ётади. Ахборот технологиялар ўкув жараёнини ташкил этиш ва бошқаришда, ўкув режалар, ўкув дастурлари ва ўкув материалларини яратишга тавсиялар ишлаб чикишда, тестлашибирмоқда, назорат қилишда педагогик ходимларга қўмакчи вазифасини бажаради.

Таълим тизимида замонавий ахборот технологиялар татбиқ этилса, ўкув жараёнини олиб бориш янада такомиллашиб, талабаларнинг чукур билим олишлари учун янада кўпроқ имкониятлар яратилади.

Бугун бутун дунёда миллионлаб кишилар қарийб барча соҳалар: ҳукуқ, мухандислик, дастурлаш, тил ўрганиш ва бошқа йўналишларда онлайн таълим олмоқда. Онлайн таълим бепуллиги, ҳаммабоплиги ва қулайлиги билан тобора кенг ёйилмоқда. Булар орасида сўнгги йилларда электрон таълим ривожланишининг энг истиқболли йўналишларидан бири — оммавий очиқ онлайн курсларларнинг шаклланиши бўлди, уларнинг асосида эса оммавий ва барчага тенг имкониятлар мавжуд бўлган таълим ғояси ётади. Оммавий очиқ онлайн курслар(ОООК) бўйича бутун дунёдаги хоҳлаган кишида ушбу курсда бепул таълим олиш имконияти мавжуд. Бугунги кунда ОООК имкониятидан фойдаланганлар сони бир неча миллион нафарни ташкил этмоқда. Дунёнинг бошқа етакчи университетлари, таълим марказлари ҳам онлайн таълимга катта урғу қаратмоқда. Онлайн мухитда қиммат дарсликларни бепул ўқиши имконияти

ҳам мавжуд. Ҳозирда интернетда маълум бир гурухлар бўлиб ишлаш имконияти бор. Таълимда ҳам бу муҳим аҳамиятга эга. Гуруҳ бўлиб ишлаган маълумотлар онлайн сақлаб қолиш имкониятига эга. Улардан кейинги йилги тингловчилар ҳам фойдаланиши мумкин. Анъанавий таълимда эса бу имконият чекланган.

Маълумки ахборот алмашинуvida инсоннинг кўриш сезги органи ёрдамида қабул қилинган ахборот энг самарали ҳисобланади ва у хотирада ҳам чуқур из қолдиради. Жумладан товуш воситасида берилган ахборот ҳам ижобий таъсир этади. Энг кам самара берувчи ахборот воситаси бу ёзувли ахборот бўлиб, уни қабул қилиб олиш ва мияда қайта ишлашда кўпроқ вақт сарфланади ва ҳар бир инсоннинг физиологиясидан келиб чиқган ҳолда ахборотнинг маълум бир қисми йўқотилиб хотирада сақланади.

Бугунги кун ва замон талабидан келиб чиқкан ҳолда “Компьютер графикаси” фани ҳар бир соҳа билан узвий боғланиб, унга бўлган эҳтиёж тобора ошиб бораётганлиги аниқ. Компьютер графикасининг қўлланиш кўлами жуда кенг бўлиб, аввалом бор ушбу соҳани визуаллиги дикқатга сазоввордир. Яъни компьютер графикасида тасвир асосий омил бўлиб хизмат қиласи.

Юқорида келтирилган фикрлар билан бир қаторда, компьютер графикаси ўқитувчиларининг касбий қизиқишлирини ривожлантириш ва ижодий қобилияtlарини намоён қилишга жуда катта ёрдам беради.

Таҳлил қилинган тадқиқот ишларида, фаннинг мазмунини такомиллаштириш, уни ўқитишида қўлланиладиган метод ва воситалар, график таълимда талабаларнинг билим жараёнини фаоллаштиришнинг педагогик шарт – шароитлари ва ташкил этиш методикаси, бўлажак ўқитувчиларнинг компьютер графикаси бўйича компетентлигини ривожлантириш методикалари ишлаб чиқилган бўлса-да, аммо педагогика олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчиларнинг электрон таълим яъни оммавий очиқ онлайн курслар орқали компьютер графикасини ўқитиш масаласи алоҳида муаммо сифатида кўриб чиқилмаган ва тадқиқ этилмаган.

Амалга оширилган тадқиқотлар таҳлили олий таълим муассасаларида “Компьютер графикаси” фанини ўқитишида турли график дастур имкониятларидан фойдаланиб, талабаларнинг билим ва кўниkmаларини шакллантириш технологиясини ишлаб чиқиш муаммоси тадқиқот иши сифатида тадқиқ этилмаганлигини кўрсатди. Бу борадаги муаммоларнинг илмий-педагогик жиҳатдан ўз ечимини топмаганлиги педагогика олий таълим муассасаларида талабалар компьютер графикаси фанини ўқитилишининг мақсад ва мазмунини тўла англай олмаслиги, ўз мутахассислигига оид масалаларни турли график дастурларнинг имкониятларидан фойдаланиб, графиклаштиришда билим ва кўниkmаларини етишмаслиги, фан мазмуни хориж мамлакатлар таълим тизими тажрибаси асосида такомиллаштирилмаганлиги, фан мазмуни таркибида 3D моделлаштириш, CAD тизимлари ва RP технологиялар каби замонавий

компьютер графикасига оид билимларни йўқлиги бир қатор муаммоларни юзага келтирмоқда.

Бугунги кунда педагогика олий таълим муассасаларида “Компьютер графикаси” фанини ўқитишида талабаларни фанга нисбатан мақсадли ҳаракатларини шакллантириш ва шу орқали бирор бир натижага эришиш мумкинлигини сингдиришда, керакли педагогик ва психологик воситаларни амалда қўллаш ва уларни илмий асослаш муҳимдир.

Олиб борилган тадқиқот натижаларига кўра, республика педагогика олий таълим муассасаларида “Компьютер графикаси” фанини ўқитишида:

педагогика олий таълим муассасаларида “Компьютер графикаси” фанини ўқитиши жараёни маъруза, амалий ва лаборатория машғулотларини стандарт тизимга солинмаганлиги; талабаларни “Компьютер графикаси” фанидан билим ва кўникмаларини ривожлантиришда график дастурларнинг имкониятларидан талаб даражасида фойдаланишга вақт меъёрининг етишмаслиги; “Компьютер графикаси” фанидан илмий-методик қўлланма ва дарслекларнинг етишмаслиги; график фанларни ўқитиши соҳасида фанлараро алоқадорликни мавжуд эмаслиги; график фанларни ўқитадиган малакали кадрларни етарли эмаслиги; фанни ўқитишида зарур бўлган электрон ўкув қўлланмалар ва видео дарсларнинг йўқлиги каби камчиликлар аниқланди.

Шундан келиб чиқсан ҳолда, “Компьютер графикаси” фанини бугунги кундаги муаммоларини тадқиқ қилиш; график дастурларнинг имкониятларидан фойдаланиб, талабаларнинг билим ва кўникмаларини шакллантириш технологиясини ишлаб чиқиш; мутахассислар тайёрлаш жараёнида ҳар бир соҳага ўзига хос график дастурларнинг имкониятларидан тўла фойдаланишни амалга оширишни педагогик асосларини ишлаб чиқиш; бу жараённинг психологик-педагогик шароитларини аниқлаш ва унинг сифатини белгиловчи мезонларини асослаш муҳим аҳамият касб этади.

ОТМларда компьютер графикаси таълимининг моҳияти, уни ўқиётган талабалар қайси соҳани эгаллашларидан қатъий назар, ушбу соҳа масалаларини компьютер технологиялари асосида автоматлаштириш, лойиҳалаштириш ва моделлаштириш имкониятларини тўла амалга ошириш қобилияtlарини намоён эта олишлари лозимлигидадир.

“Компьютер графикаси” фанининг асосий мақсади, барча фан соҳаларини компьютер технологиялари борасида интеграциясини амалга ошириш ва буни натижасида бўлажак мутахассисларни турли график дастурларнинг имкониятларидан фойдаланиб, амалий натижаларга эришишларини таъминлашдан иборатдир.

Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, республика педагогика олий таълим муассасаларида “Компьютер графикаси” фанини ўқитишини янада ривожлантириш, унинг замонавий масалаларини таҳлил қилиш ҳозирги куннинг

муҳим талабидан иборат бўлсада, бу йўналишда олиб борилаётган илмий тадқиқот ишлари ҳали етарли эмаслигини кўрсатмоқда. Шунинг учун, “Компьютер графикаси” фанини стандарт бир тизимга солиш, мазмунан мувофиқлаштириш ва педагогик талабларини илмий асослаш, уни ўқитишида график дастурларнинг имкониятларидан фойдаланиб, талабаларнинг билим ва кўникмаларини ривожлантиришнинг замонавий технологиясини яратиш ва амалиётга жорий этиш муаммолари долзарб вазифалар сирасига киради.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон фармони LEX.UZ/DOCS/4545884
2. Urokova, S. B. (2020). Advantages and disadvantages of online education. ISJ Theoretical & Applied Science, 9(89), 34-37.
3. Kadirbergenovna, B. L. (2022, February). Massive open online course basic requirements for digital educational resources. In Conference Zone (pp. 187-190).
4. Абдурахманова, Ш. А. (2017). Развитие педагогической науки в Республике Узбекистан. Молодой ученый, (1), 428-430.
5. Mamarajabov O.E. Benefits of Using Information Technology in the Education System // Vocational Education. Tashkent, 2019. No.1. P. 55-59.

## **TA’LIM JARAYONIDA, MULTIMEDIYA TA’LIM MUHITIDA AXBOROTNI QAYTA ISHLASH VOSITALARI ISHLASHINI VZUALLASHTIRISH**

### **ERKAYEV XUSAN AXMADALIYEVICH**

Nizomiy nomidagi TDPU Professional ta’lim fakulteti Axborot texnologiyalari kafedrasi o’qituvchisi

Insoniyat tarihida yaratilgan har bir ihtiyoj bir tabiatda mavjud bo’lgan mavjudodtni obrazi qilib yaratilgan. Masalan: Avtomobil bu xayvonlardan otlarga, samolyot bu, qushlar timsoli sifatida yaratilgan. Tarihdan shu narsa ma’lumki, insoniyot olamini rivojlanish bosqichlarida har bir narsa extiyoj va xal qilinishi kerak bo’lgan muommolarni bartaraf etilishi orqali yangi natijalarga erishgan. Oziq-ovqat yetishmasligi muommosi echimi sifatida yerlar o’zlashtirilgan va jismoniy tomondan yordam bo’lishi uchun hayvonlardan foydalanilgan. Keyinchalik, bu narsa jismoniy yordam berilishi uchun yanada takomillashtirilgan. Aqliy

mehnatimizga yordam beruvchi vositalar; sanoq cho'plari, abak, kalkulyator, elektron hisoblash mashinalari va shu kabilar ketma-ket yaratila boshlanganki, bu insonga aqliy mexnatiga yordamchi vazifasini o'tagan.

Hisoblash texnikasining rivojlanishi hozirgi davrdagi yuksak darajaga yetguncha u juda katta taraqqiyot jarayonini boshidan o'tkazdi. Bu taraqqiyot jarayonini ko`rib chiqqanimizda bir o'rinni savol xosil bo'ladi - qanday konkret muammolar hisoblash texnikasining rivojlanishiga sabab bo`ldi va nima sababli hisoblash texnikasining xilma xil vositalari paydo bo`ldi? - bu rivojlanish jarayoni qanday asosiy bosqichlardan iborat bo`lgan?

Hisoblash texnikasining rivojlanishi tarixini shartli ravishda to`rt katta davrga bo`lishimiz mumkin.

Mexanik hisoblash qurilmasigacha bo`lgan davr uzoq o`tmishdan boshlanib, to XVII asr boshlarigacha davom etgan. Bunda har qanday hisoblash asbobi alohida raqam razryadlariga ega bo`lgan. Hisoblash jarayonini ma'lum holatda tosh, yog`och yoki jetonlarni o'rnashtirib turib amalga oshirishni qadimgi rimliklar "kal'kulyar" degan lotin so`z bilan atashgan.


Mexanik qurilmalar davri, XVII asr boshlaridan XIX asr oxirigacha davom etgan. 1623 yil ingliz olimi V.Shikkard birinchi bo`lib oddiy qo'shish va ayirish amalini bajara oladigan mexanik hisoblash mashinasini yaratdi, lekin bu mashina tor doiradagi insonlar uchungina ma'lum bo`lib, keng tarqalmadi. Shuning uchun ham bizgacha yetib kelgan birinchi mexanik hisoblash mashinasi 1641 yili frantsuz olimi B.Paskal tomonidan yaratilgan jamlash mashinasi bo`lib, u ikki amalni – qo'shish va ayirish operatsiyasini bajara olardi. 1673 yili nemis olimi Gotfrid Leybnits tomonidan to`rt arifmetik amalni bajara oladigan, yaqingacha hamma joyda keng foydalanib kelingan *arifmometr* yaratildi. Bu hisoblash mashinalari ichida qulayrog' idir. XIX asr 90-yillarining boshida Peterburglik olim V.T.Odner tomonidan juda qulay mexanizm yaratilib, unga arifmometr "FELIKS" nomi berildi. XX asrning birinchi choragida bu mashinalar asosiy hisoblash mashinalari bo`lib hisoblanardi.

Elektromexanik mashinalar davri XIX asr oxiridan XX asr o'rtalarigacha bo`lgan davrni o'z ichiga oladi.

Elektrotexnikaning rivojlanishi hisoblash mashinalarida inson jismoniy mehnati o'rniga elektr energiyani qo'llashga olib keldi.

Elektromexanik mashinalar bilan bir vaqtida yangi mashina turlari, hisoblash - analitik mashinalari paydo bo`lib, ularda hisoblash operatsiyalari bajarilib, avtomatik usulda natijalar taqqoslanilib, taxlil qilinish imkonи yaratildi.

Bunday mashinalardan eng birinchisi 1888 yil AQShda G.Gollerit tomonidan yaratilib, unga "tabulyator" nomi berildi. Bu mashinalarda axborot tashuvchilar sifatida perfokartalar xizmat kilgan. Bizning Vatanimizda hisoblovchi – analitik mashinalar asrimizning 20-chi yillaridan boshlab ishlatila boshlandi. Bu mashinalar perfokartada axborot tayyorlovchi qurilmalar (perforatorlar), perforatsiyani nazorat qilish(kontrolçniklar), saralash, ma'lum sistemaga keltirish mashinalari(reprodukторlar) bilan birgalikda kompleks bo'lib ishlatilardi. Hisoblash natijalarini tabulyator jadval ko'rinishida chop etib berar edi.



Elektron hisoblash mashinalar davri asrimizning 40-yillari o'rtalaridan boshlanib to hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr elektronikaning rivojlanish davri bilan bog'liq bo'lib, uning asosida hisoblash mashinalarining yangidan-yangi turlari va modellari dunyoga keldi.

Bizga ma'lum bo'lgan hisoblash vositalari insonlarga aqliy mehnatiga yordam beruvchi, axborotlarni qayta ishlash, saqlash va uzatish uchun hizmat qilmoqda. Ularning faoliyati va ishlashi insonning fiziologik tuzilishiga o'xshash. Masalan, inson tashqi malumotlarni ko'z, burn, qulqoq, til, teri orqali olsa, bu ma'lumotlar miyada tahlil qilinib, xotiraga tayanib, javob qaytariladi. Demak, kompyuterlarimi ma'lumotlar klaviatura, sichqon orqali mikroprocessorga uzatilsa, shu kabi insonlarda sezgi organlari orqali miyamizga yetib boradi. Yetib borgan ma'lumotlar qayta ishlanadi va qayta ishlangan ma'lumotlar xotiramizdagi ma'lumotlar bilan solishtiriladi.

Biz o'quvchilarga o'rgatayotgan o'byektimizn vizuallashtirilgan holdagi obrazidan kelib chiqib orgatishimiz maqsadga muofiqdir.

O'bektni o'rganayotgan o'quvchi, o'byektdagi jarayonlarni vzuallashtirilgan ko'rinishda, ko'rib o'rgansa, bu jarayonlarni borishi tasavurlari kengayadi. Buning uchun bizda bir necha dasturiy vositalar mavjud.

$$F = \frac{Q_{quyosh}^{oy}}{Q_{b.yo}^{oy}} = \frac{(Q_{yuk}^{oy} - Q_{quyosh}^{oy})}{Q_{b.yo}^{oy}} = 1 - \frac{Q_{quyosh}^{oy}}{Q_{b.yo}^{oy}}$$

Bu yerda  $Q_{yuk}^{oy}$  – hajmiy quyosh havo isitgich va kollektor akkumulyator devorli chorvachilik xonasini bir oy davomida isitish uchun sarflanadigan energiya miqdori;  $Q_{quyosh}^{oy}$ ,  $Q_{b.yo}^{oy}$  – quyosh energiyasidan oy davomida olinib foydalaniladigan va qo'shimcha bioenergiya yoqilg'i energiya sarfi hisobidan qoplanadigan energiya miqdori.

Hisoblashlarda bir oy davomida iqtisod qilinadigan yoqilg'i miqdori:

$$B = \frac{Q_{quyosh}^{oy}}{(Q_{b.yo}^{oy} \eta_{b.ener.kur})}$$

tenglikdan aniqlanadi.

Bu yerda  $Q_{yoq}$  – bioenergiya yoqilg'i sarflangandagi issiqlik miqdori;  $Mj/kg$ ;  $\eta$  – bioenergiya qurilmasining F.I.K ( $\eta_{b.kur} = 0,6 \div 0,8$ ) qish faslida 1 oy davomida  $1 m^3$  quyosh havo isitish hajmiy kollektoridan olinadigan energiya hisobidan  $0,58 - 0,71$  t shartli yoqilg'ini tejashta erishish mumkin. Agar hajmiy havo isitgich (geliootplisadan) olinadigan issiqlik havo quyosh chorvachilik binosida issiqlik akkumulyator sifatida kollektor akkumulyator devordan foydalaniladigan bo'lsa va unda 8 qator 2 tomonlama 400 dona suv to'ldirilgan plastmassali (ja'mi  $600 l$  suvli) bakalashkalar issiqlik akkumulyator sifatida joylashtirilganda quvurning balandligi  $3 m$ , qalinligi  $40 sm$  bo'lsa, uning issiqlik havo oqimiga nisbatan aerodinamik qarshiligi  $1,2 \div 1,5 Pa$ , issiqlik havo quvur orqali harakatlanganda esa  $0,05 Pa$  ga teng bo'lib, issiqlik havoning suv to'ldirilgan baklashkalarga issiqlik berish koeffisiyenti  $\alpha = 0,55 \div 0,8$  ga teng bo'ladi [4]. Shunga asosan quyosh kollektorining yuzasi  $A$  ni isitiladigan chorvachilik binosini yer yuzasi  $A_{kol}$  nisbatini tashqi havo temperaturasi  $T_T$  ga nisbatan 2021 yil yanvar-fevral oylaridatajribada aniqlandi.

Shuningdek quyosh issiqlik havo kollektorining yuzasi  $A$  va issiqlik akkumulyatorining hajmi  $V$ , hamda chorvachilik binosini qish oylari (yanvar, fevral) isitish uchun qo'shimcha bioenergiya sarfini e'tiborga olib hajmiy quyosh havo isitish kollektorining issiqlik miqdori quyidagicha hisoblandi:

$$Q_K = A \left[ I_K \eta_0 - K_K (T_{is.ch} - T_{is.k}) \right] = GC_p (T_{is.2} - T_{is.1}).$$

Bu yerda  $A$ -quyosh issiqlik havo kollektorining o'rtacha yuzasi,  $m^2$ ;  $I_K$  – hajmiy quyosh havo isitish kollektorining tiniq yuzasiga tushuvchi quyosh energiyasi oqimining zichligi [5],  $Vt/m^2$ ;  $\eta_0$  – hajmiy quyosh havo isitish kollektorining issiqlik havo berish F.I.K;  $K_K$  – issiqlik havo beruvchi hajmiy quyosh kollektoring umumiyligi issiqlik yo'qotish koeffisiyenti,  $Vt/m^2$ ;  $T_{is.1}, T_{is.2}$  – kollektor akkumulyator devor orqali quyosh hajmiy kollektoriga kiruvchi va undan chiquvchi havo temperaturasi,  $^{\circ}C$ ;  $G$  – quyosh hajmiy havo isitish kollektoridagi issiqlik akkumulyatoriga yo'naltirilgan issiqlik havo oqimining massali sarfi,  $kg/s$ ;  $C_p$  – issiklik tashuvchi havoning bosim o'zgarmagandagi solishtirma issiqlik sig'imi,  $J/kg^{\circ}C$ .

Quyosh issiq havo hajmiy kollektorining bir oylik kunduzgi solishtirma issiqlik berish miqdori quyidagi tenglik asosida aniqlanadi:

$$q_k = Q_K \eta_0 (1 - ap + bp^2).$$

Bu yerda  $Q_K$  – kunduz kunlari quyosh hajmiy kollektorining  $1\ m^2$  yuzasiga o‘rtacha oylik tushadigan quyosh energiyasini miqdori,  $J/m^2$ . Bu tenglikni

$$Q_K = RQ$$

formula yordamida hisoblandi. Bu yerda  $R$ -quyosh hajmiy havo isitish kollektori tiniq yuzasiga oylik quyosh energiyasini tushadigan miqdorini, kollektor ichiga o‘tadigan miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi:

$$R = \left(1 - \frac{Q_c}{Q}\right) R_{yu} + \frac{Q_c}{Q} \cdot \frac{1 + \cos \beta}{2} + \rho \frac{1 - \cos \beta}{2}$$

bu yerda  $Q_c$  – gorizontal yuzaga quyosh radiasiyasining sochilib tushgan miqdori  $mj/m^2$  kun;

$\frac{Q_c}{Q}$  – nisbat quyosh havo isitish kollektoriga kun davomida sochilib tushgan quyosh radiasiyasini  $Q$

umumiyl (yig‘indi) tushadigan radiasiya miqdoriga nisbati;  $R_{yu}$  – quyosh hajmiy havo isitish kollektorining tiniq yuzasiga to‘g‘ri tushadigan quyosh radiasiyasining miqdori;  $\beta$  – quyosh hajmiy havo isitish kollektorining gorizontga nisbatan qiyalik burchagi;  $\rho$  – quyosh nurining Yer sirtidan va atrof muhitdan ya’ni -albedo; Odatdagi  $\rho = 0,3 \div 0,5$  ga (qish oylarida) teng bo‘ladi. 1-jadvalda Muborak tumani ( $\varphi = 39^\circ$ ) da hajmiy quyosh havo isitish kollektorining tiniq yuzasiga tushadigan quyosh energiyasining o‘rtacha miqdori va kollektor akkumulyator quvurli hajmiy havo isitish kollektori uchun  $\eta_0, a, b$  parametrining qiymatlari keltiriladi.

1-jadval

Hajmiy quyosh havo isitish kollektorining tipi	$Q, kj/m^2 \cdot \text{kun}$	$\eta_0$	$K_0$	$a \cdot 10^3$	$b \cdot 10^3$
HQHIK-1	2486	0,78	8,0	10,7	21,3
HQHIK-2	2110	0,72	4,6	6,9	12,7
HPMHIK-1	2360	0,75	5,5	7,9	16,4
HPMHIK-2	1980	0,71	3,5	5,6	8,7

1-jadvaldagi; HQHIK-shisha material qoplangan issiq havo kollektori; HPMHIK-hajmiy bir qavat pylonka material qoplangan issiq havo kollektori;

1-2-kollektorni tiniq yuzasi qoplangan shishaning qavati;


$\eta_0$  – hajmiy quyosh issiq havo kollektorining F.I.K;

$K_0$  – hajmiy quyosh issiq havo kollektorining effektiv issiqlik yo‘qotish koefisiyenti,  $Vt/(m^2 \cdot ^\circ C)$ ).

Shuningdek passiv sistemali fermer xo‘jaliklaridagi chorvachilik binolarini isitishda binolarning janubiy tomonida hajmiy quyosh havo - isitish kollektordan (gelioteplisalar qurib) foydalanish bilan samarali natijalarga erishish mumkin. 1-rasmida fermer xo‘jaliklari uchun mo‘ljallangan kombinasiyalashtirilgan Quyosh bioenergiya bilan isitiladigan chorvachilik binosining sxemasi keltirilgan.

Avtonomlashtirilgan fotoelektr sistema (1-rasm) 16 ta fotoelektr batareya (FEB) dan foydalanib yer osti artizan qudug‘idan suv chiqarib, chorva mollarini sug‘orish, ostki qismini o‘z vaqtida

yuvib turish, geliootplisada yetishtiriladigan o'simliklarni sug'orish va qo'shimcha suv bakida yetarli miqdorda suv to'plab olish ishlari qo'shimcha energiya sarflanmasdan bajariladi. Fotoelektrik batareyaning o'lchamlari  $1300 \times 830 \times 10 \text{ mm}^3$  bo'lib, bu qurilmaning umumiy quvvati  $2240 \text{ Vt}$  ga teng. 1-rasmda keltirilgan fotoelektrik sistema quyosh batareyasi, akkumulyator batareya, suv uzatiladigan quvuri, invertor, suv saqlanadigan yomkost, suv chiqariladigan quduq va nazorat relesidan tuzilgan. Quyosh batareyasi panelining  $1\text{m}^2$  yuzasiga  $250\text{-}300 \text{ Vt}$  nur oqim energiya tushishi qurilmaning normal elektr energiya ishlab chiqarishiga yetarli bo'ladi. O'z navbatida quyosh batareyasi o'rnatilgan panel quyosh nur oqimini o'zgarishiga qarab buriladi va nur energiyasini maksimal panel yuzasiga tushishiga erishiladi.



*1-rasm. Kombinasiyalashtirilgan kollektor-akkumulyator devorli quyosh- chorvachilik binosini avtonom fotoelektr sistemasi bilan ishlatisni prinsipial sxemasi.*

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, ishchi maydoni ( $16 \times 5 = 80 \text{ m}^2$ ) bo'lgan chorvachilik binosidagi havo temperaturasi va namligini, suv bilan chorva mollarni sug'orish, bino osti tozaligini ta'minlash maqsadida yuvib turish, geliootplisadagi o'simliklarni sug'orib turish va hajmi  $6\text{-}10 \text{ m}^3$  bo'lgan suv bakini to'ldirib borish uchun o'lchamlari  $156 \times 156 \times 2 \text{ mm}$  bo'lgan fotoelektrik batareya paneli yetarli bo'ladi. Avtonomlashtirilgan fotoelektrik sistema avtomatik boshqarish tizimi yordamida boshqariladi (Avtonom fotoelektrik blokning boshqarish sxemasi 15-rasmda keltirildi). Hisob-kitoblarga qaraganda, bunday qurilmalarda bir tonna chiqindini (hayvonlar go'ngi, fekaliylar, sabzavotlar qoldiqlari va hatto shox-shabbalarni) qayta ishlash natijasida o'rtacha  $40 \text{ m}^3$  biogaz, ya'ni 220 Megakaloriya issiqlik chiqaradigan yonilg'i yoki 80 kilovatt-soat miqorida elektr energiyasi, shuningdek 1 tonnagacha ekologik sof organik o'g'it hosil bo'ladi. YA'ni biz chiqindini qayta ishlamasdan yerga solayotganda nafaqat atrof-muhitni ifloslantiryapmiz va tuproqda zararli hashorotlar hamda yovvoyi o'simliklar urug'larining yo'l ochyapti. Ayrim kommunal muammolarning muqobil yechimini topish ustida tadqiqotlar olib borib, yerlarimiz unumdarligini yanada oshirish usulidan foydalanish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

- Дэвис А.Шуберг Р. Альтернативные источники энергии в строительном проектировании. М.: Стройиздат. 2003г. 190с.
- Захидов Р.А., Киселева Е.И. Орлова Н.И., Гаджиев У.А. Комбинированное использование энергии солнца, ветра, водотоков- основа создания надежных систем энергоснабжения в Узбекистане. Фундаментальные и прикладные вопросы физики. Труды конференции посвященной 60-летию АНРУ и ФТИ. -Т.: 2006 г. 103 с.
- С.Лутфуллаев. Бубушее за возобновляемыми источником энергии. Экология хабарномаси. З(108).Т.2010 г.

5. Хайдаридинов Б.Э., Халимов А.Г., Ким В.Д. Радиационные характеристики гелиотеплицы. Гелотехника №2 2009 г. 61-69 с.

## **Virtual studiyalar haqida. Zamonaviy televizion ko'rsatuvarlar uchun virtual studiyalarni loyihalashtirish**

**Abdullayev Og'abek**

"Virtual studiya" atamasi birinchi marta 1994 yilda Amsterdamda bo'lib o'tgan Xalqaro radioeshittirish kongressida (IBC) kuchli kompyuter yordamida real vaqt rejimida yaratilgan oddiy telestudiya muhiti namoyish etilganda kiritilgan. Bo'sh xonada harakatlanayotgan aktyor tasvirda kompyuter grafikasi yordamida yaratilgan manzara bilan o'rالganligini ko'rdi. Aktyorning orqasidan kamerani siljitim va panorama qilishda sintez qilingan sahna ko'rinishidagi barcha o'zgarishlar real vaqt rejimida shunday hisoblab chiqildiki, ekranda sodir bo'layotgan voqealar haqiqati haqidagi taassurot yaratildi. 1990-yillarning o'rtalarida tasvirni kuchli qayta ishlash 2D va 3D kompyuter grafikasidagi yutuqlarning mantiqiy davomi bo'lib, bu juda murakkab harakatlanuvchi tasvirlarni hisoblash usuli bilan sintez qilish imkonini beradi. Darhaqiqat, virtual studiya tomon harakat ancha oldinroq, 1960-yillarning oxirida, kinoteatrtdagi "ayyor maska" texnikasi "xroma kaliti" nomi bilan televizorga ko'chib o'tgandan so'ng boshlangan. Bunday holda, ekrandagi tasvir rang o'tish chegarasi bo'y lab (ob'ekt - fon) "chiziqlangan" va tasvirning belgilangan qismi elektron tarzda boshqa tasvir bilan almashtirilgan. Jismoniy jihatdan rangli signal, masalan, ko'k, boshqa rangga o'tishda, masalan, sariq, darajani keskin o'zgartiradi va farqlash bilan ta'kidlangan bu o'tish signalni bir tasvirdan ikkinchisiga o'tkazish uchun kalit bo'lib xizmat qiladi. Bunday kommutatsiya televizion signalning har bir ramkasida (maydonlarida) chiziqdan chiziqqa amalga oshiriladi. Agar aktyor ko'k fonda kamera oldida joylashgan bo'lsa, unda tasvirlangan usulda birinchi bosqichda ko'k fon tasvirini qora rangga almashtirgan holda aktyorning tasvirini ko'k fondan ajratish mumkin. signalni qayta ishlash (ya'ni, fon bilan qoplangan maydonni tasvirdan o'chirish). Rangli o'tishdan hosil bo'lgan kalit boshqa tasvirning signalini xuddi shunday almashtirishni amalga oshirishi mumkin, ammo aksincha: boshqa tasvirdan, masalan, devorga osilgan tekis xarita, birinchi rasmda aktyor egallagan maydon. o'chiriladi. Bu aktyorning siluetiga mos keladigan qora nuqta bilan kartaning tasvirini ishlab chiqaradi. Bu signalni qayta ishlashning ikkinchi bosqichidir. Uchinchi bosqichda ikkala tasvir signallari birlashtiriladi va televizor ekranida tomoshabin aktyorni xarita fonida ko'radi.

Printsipial jihatdan yangi fonning tasviri sintezlangan (masalan, chizilgan) va harakatlanuvchi bo'lishi mumkin. Bu kalitlarni kiritish printsipini o'zgartirmaydi. Agar tasvir "ikki o'lchovli" bo'lsa (ya'ni, istiqbol bo'lmasa) hamma narsa juda oddiy

bo'lib chiqadi. Agar istiqbol mavjud bo'lsa, ya'ni. uzoq nuqtada birlashuvchi chiziqlar, soyalar, rang o'zgarishlari mavjudligi sababli tasvir chuqurlikda ko'rildi, tomoshabin kamerani biroz siljishi bilan ham aldashni darhol aniqlaydi yoki masshtablash linzalari yordamida aktyorga "yugurib ketadi". Bunday holda, ob'ektlarning o'lchamlari va burchaklarining nisbati, odatda, nuqtai nazardan buziladi.

Kompyuter grafikasi tasvirni deformatsiya qilish va kamera o'rnini o'zgartirish yoki uni aylantirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tasvir o'zgarishlariga erishish imkonini beradi. Buning uchun rasmdagi har bir nuqtaning yangi o'rnini chiziqdan chiziqqa, ramkadan ramkaga hisoblappingiz kerak. Agar biz aktyor orqasidagi fon yoki manzara tasvirini aktyorga qaratilgan kameraning joylashuvi va burilish burchagidagi eng kichik o'zgarishlarni hisobga olgan holda shunday qayta hisob-kitobga bo'ysunadigan bo'lsak, unda biz hamma narsani to'liq taqlid qilishga erishishimiz mumkin. ob'ektlarning nisbiy harakatlari: sintez qilingan (sahna) va aslida kamera (aktyor) tomonidan suratga olingan. Bunday holda, tomoshabin ekranda haqiqiy sahnadan deyarli farq qilmaydigan virtual sahnani ko'radi. To'g'ri, bu 400 ming tasvir nuqtasining yangi pozitsiyalarini va hatto ranglarning barcha tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda real vaqt rejimida (40 ms ichida) hisoblash uchun vaqt topish uchun juda tez bajariladigan juda katta miqdordagi hisob-kitoblarni talab qiladi. yorqinlik va to'yinganlik. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari 2D kompyuter grafikasi buni engadi

Ammo inson ko'zini aldash qiyin. Tomoshabin o'zi va aktyor o'rtasida biron bir ob'ektni ko'rmasa (ehtimol ongsiz ravishda) ma'lum bir noqulaylikni his qiladi. Unga aktyor oldidagi manzara yetishmaydi. Rassomning niyatini tushunish yo'lidiagi ushbu to'siqni bartaraf etish uchun "old" manzarasining yangi qiyofasini sintez qilish kerak. Bu bir xil vaqt oralig'ida yangi hisob-kitoblarni talab qiladi. Agar hisob-kitoblar to'g'ri amalga oshirilgan bo'lsa (bu 3D kompyuter grafikasining kuchiga kiradi), tomoshabin aktyorning virtual sahnadagi (virtual studiyada) ijrosidan olingan taassurotdan quvonadi, buning yordamida soxtalashtirishni sezmaydi. yangi texnologik vositalar.

Shu bilan birga, tasvir nuqtalarining yangi pozitsiyalarini aniqlaydigan to'g'ri hisoblash natijalarini olish uchun, masalan, televizor kamerasining yangi joylashuvi va linzalarning yangi yo'nalishi haqida to'g'ri dastlabki ma'lumotlarni o'rnatish kerak. Aniqlik shunday bo'lishi kerakki, xato ekrandagi ikkita qo'shni rasm elementi orasidagi masofaning yarmidan oshmasligi kerak, aks holda tomoshabin qalbakilikni qayta kashf qilishi mumkin. Televizion kameraning chiziqli va burchak koordinatalarini dinamikada to'g'ridan-to'g'ri aniq aniqlash vazifasi texnik jihatdan juda qiyin, koordinatalarni tashqi "bog'lash" usullari ixtiro qilingan. (Ular quyida ko'rib chiqiladi.) Virtual tasvir signalini yaratish uchun zarur bo'lgan katta hajmdagi hisob-kitoblar tufayli virtual sahnadagi haqiqiy harakatlar va tasvir signallarining

tegishli natijalari tugallangan daqiqalar o'rtasida kechikish mavjud. Shuning uchun, vaqtning mos kelmasligini qoplash uchun to'g'ridan-to'g'ri tortishish kanaliga kechikish kiritiladi. Xuddi shunday kechikish audio kanallarga ham kiritiladi, chunki mikronlardan raqamli audio signallarni yaratish tasvirni qayta ishslashga qaraganda ancha kam vaqt talab etadi.

Virtual studiyada televizorda suratga olishda rassom aslida bo'sh xonada bo'ladi va uning xatti-harakatlari rejissyorning niyatiga ko'ra, uni o'rab turgan virtual manzara bilan muvofiqlashtirilishi kerak, bu rassomga virtual makonda harakat qilishiga yordam beradi. "maslahat" video monitor ekranida olingen tasvir shaklida qo'llaniladi, bu erda rassom allaqachon virtual makonda tasvirlangan. Shunday qilib, virtual studiya tizimi yoki "virtual studiya" - bu ma'lum bir monoxrom rangli fon, sahna yoritgichi va jihozlar to'plamiga ega sahna maydoni. Ushbu to'plamga kamera kanali bo'lgan televizor kamerasi (ularning bir nechta bo'lishi mumkin), kalit tizimiga ega video mikser, 2D yoki 3D kompyuter grafikasiga ega kuchli protsessor, televizor kamerasining koordinatalarini aniqlash vositalari, shuningdek, ovoz uskunalari (mikrofonlar, aralashtirish konsoli, sun'iy kechikish liniyalari va boshqalar). Bundan tashqari, rassom uchun video maslahat monitori taqdim etiladi.

### **Virtual studiya tizimlarining xususiyatlari**

Virtual studiyani amalga oshirishning bir qancha usullari ma'lum: oldindan ko'rsatilgan grafikadan foydalanish, 2D grafikadan foydalanish va 3D grafikadan foydalanish. Virtual haqiqat illyuziyasini yaratish uchun, old tasvirga ta'sir qiladigan har qanday kamera harakati orqa (fon) tasvirga ham ta'sir qilishini yodda tuting. Barcha holatlarda bir yoki bir nechta robot kameralardan foydalanish kerak.

#### **2D grafika**

Agar rassom virtual studiyada harakatlanayotgan bo'lsa va suratga olish tripodga o'rnatilgan kamera yordamida amalga oshirilsa, u holda fon o'rinalarini qayta hisoblash uchun 2D grafika talab qilinadi va kameraning burilishini kuzatish uchun qo'shimcha harakat protsessor kerak bo'ladi.

#### **3D grafika**

Kameraning sahna bo'ylab chiziqli harakati va uning aylanishida 3D grafika uchun ikkita boshqaruv protsessoridan va yanada kuchli hisoblash vositalaridan foydalanish kerak bo'ladi, ularni amalga oshirish uchun Silicon Graphics superkompyuterlari, masalan, Opuh ko'pincha ishlatiladi. ishlatilgan.

Kamerani boshqarish Televizion kameralarni boshqarish uchun virtual studiyalar kameralar o'rnatilgan maxsus sensor boshlari bilan jihozlangan. Kamera burchaklariga qo'shimcha ravishda, bu boshlar sizga fokus va masshtab o'rmini kuzatish imkonini beradi. Ularning ishslash printsipi kameraning harakatlanuvchi

qismlarining burilish burchaklarini o'rnatadigan sensorlar signallaridan foydalanishga asoslangan. Ular murakkab va qimmat. Bunday boshning narxi, masalan, Ultimatte-dan Xotira boshi, kameraning narxidan oshib ketishi mumkin. Kameraning burchak va fazoviy koordinatalarini tashqi koordinatalarga "bog'lash" bilan aniqlashning boshqa usullari ancha arzon. ORAD kompaniyasi virtual studiya fonida qo'llaniladigan chizma (tartibsiz matritsa) yordamida kamera koordinatalarini aniqlashdan foydalanadi. Suratga olish jarayonida bu naqsh naqshni aniqlash tizimi tomonidan qabul qilinadi va kameraning fonga nisbatan fazoviy holati hisoblab chiqiladi. Bu murakkab va qimmat datchik boshlariga ehtiyojni yo'q qiladi. Bunday tashqari, operator rampa bo'y lab sayohatini cheklash orqali kamroq cheklangan. Free-d deb nomlangan tashqi "bog'lovchi" kameralarning yana bir tizimi yorug'lik reflektorlarining tartibsiz tuzilishiga ega ship chiroqlarini ishlatadi. Bunday holda, kamera o'zining yuqori gorizontal yuzasida joylashgan maxsus transduser bilan jihozlangan bo'lib, u idrok etilgan yorug'lik naqshini tasvirni aniqlash tizimiga uzatadi, bu esa kameraning studiya shiftiga nisbatan koordinatalarini hisoblab chiqadi. Ushbu tizimdan foydalanganda operator nafaqat rampa bo'y lab, balki sahnaga chuqur kirib borishi mumkin.

### Virtual studiyalarning qo'llanilishi to'g'risida

Birinchi namoyishdan so'ng virtual studiyalar televidenie va kino prodyuserlari orasida mashhur bo'ldi. Buning ajablanarli joyi yo'q, chunki kino ishlab chiqarish uchun mutlaqo yangi ufqlar ochildi. Birinchidan, san'atkorning fantaziysi bilan qo'zg'atilishi mumkin bo'lgan deyarli har qanday sahna makonini amalga oshirish uchun yangi badiiy imkoniyatlar paydo bo'ldi. Ikkinchidan, sahnalarni bezash uchun dekoratsiya yaratish barcha ishlab chiqarish va yordamchi xizmatlar bilan butun ustaxonalarning mashaqqatli mehnatini talab qilmaydi. Dekoratsiya qilish uchun materiallarga ehtiyoj yo'q. Nihoyat, bezaklarni ishlab chiqarish va saqlash uchun ustaxonalarni joylashtirish uchun katta maydonlarga ehtiyoj yo'q. Natijada, katta miqdordagi pulni tejash mumkin, bu odatda suratga olish uchun sahnalarni o'rnatishga sarflanadi. Bu virtual studiyalar filmlar va teledasturlar prodyuseriga tekinga boradi, degani emas. Hisoblash uchun ishlatiladigan bitta superkompyuterning narxi hozirda 50 000 AQSh dollaridan oshadi. Kerakli dasturiy ta'minot (dasturiy ta'minot) narxi superkompyuter narxiga yaqinlashadi. Virtual studiyani amalga oshirish uchun boshqa qimmat komponentlar ham talab qilinadi (kameralarning sensorli boshlari yoki kameraning holatini kuzatish uchun maxsus lampalardan tayyorlangan shift matritsasi, xavfsizlik kameralari, sun'iy signalni kechiktirish bloklari va boshqalar). Va shunga qaramay, virtual studiya yaratish xarajatlari deyarli har doim olti oydan kamroq vaqt ichida to'lanadi. Bir necha yillar davomida dunyodagi ko'plab o'nlab yirik telemarkazlar va yirik kinostudiyalar qimmat bo'lishiga qaramay, o'zlarini virtual studiyalar to'plamlari bilan jihozladilar. Dunyoning o'ndan ortiq yirik kompaniyalari virtual studiyalar uchun yangi

uskunalar va dasturiy ta'minotni yaratish sohasida jadal ishlamoqda. Virtual studiyalar uchun yangi jihozlarning narxi doimiy ravishda pasayib, yangi yaratilgan tizimlarning funksionalligi oshib bormoqda. Virtual studiya turli xil maqsadlarda qo'llaniladi, ular orasida quyidagilarni ta'kidlash kerak: - real vaqt rejimida voqealar namoyishi bilan jonli efirga uzatiladigan yangiliklar; - fonni oldindan tayyorlagan holda yangiliklar ko'rsatuvarlarini ishlab chiqarish va chiqarish (ob-havo xaritalari, voqealar fragmentlari, dinamik tasviriy materiallar); - ajoyib va informatsion sport dasturlarini ishlab chiqarish; - inson faoliyatining turli sohalarida (tabiiy ofatlar, atrof-muhit sharoitlari, iqtisodiyot tarmoqlarining holati, moliyaviy sohadagi hodisalar, siyosiy sohadagi hodisalar va boshqalar) vaziyat va hodisalarni ko'rsatish; - turli maqsadlar uchun o'quv filmlari va o'quv materiallarini ishlab chiqarish; - animatsion filmlar ishlab chiqarish.

### Xulosalar

1. Virtual studiyalar televidenie texnologiyasining yangi, jadal rivojlanayotgan yo'nalishi bo'lib, ularni amalga oshirishning texnik vositalari doimiy ravishda takomillashtirilmoqda.
2. Virtual studiyalar doirasi inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi, bu yerda videomateriallarni yaratish va taqdim etishdan foydalaniladi. Xususan, virtual studiyalar majmualari radioeshittirish, ishlab chiqarish, korporativ, o'quv va maxsus televideniyeda, badiiy, multfilm va hujjatli filmlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.
3. Virtual studiyalardan foydalanish an'anaviy telestudiyalar va kinostudiyalardan foydalanishdan ko'p jihatdan voz kechish va an'anaviy studiyalarning dekoratsiya va sahna dizaynnini ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlar va vaqt ni qisqartirish imkonini beradi. Bu tsexlarning o'zlariga bezak ishlab chiqarishga bo'lgan ehtiyojni bartaraf qiladi va ishlab chiqarish maydonlarini, mashinalar, asbob-uskunalar va materiallar uchun mablag'larni, bunday sexlarni ishlatish uchun mablag'larni tejaydi.
4. Televizion markazni yaratish yoki rekonstruksiya qilishda ishlab chiqarish maydonlarini hamda ishlab chiqarish ustaxonalari va yordamchi xizmatlarni yaratish va ulardan foydalanish uchun mablag'larni tejash maqsadida dastlab an'anaviy telestudiyadan emas, balki virtual studiyadan foydalanishga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. dekoratsiya va sahna dizaynnini yaratish.

# **ТАЛАБАЛАРДА Соғлом турмуш тарзи күнікмаларини шакллантириш**

**Н.Ш.Маннапова ТДПУ доцент в.б**

Таълим тизимида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш турли йұналишларда изчиллик билан, муайян дастур асосида, аниқ йұналишларда олиб бориши лозим. Хусусан, бу аввало олий педагогик таълим жараёнида талабаларга соғлом турмуш тарзига оид муайян тиббий ва гигиеник билимларни бериш, уларда соғлом турмуш тарзини сақлашнинг инсон танаси такомилига таъсири ҳақидағи тушунчаларни шакллантиришга қаратылса, иккінчи томондан, ёшларда қатый режим асосида гигиеник қоидаларга амал қилиш, үзи ва ён-атрофдагиларнинг соғлигини асрашни кундалик одатта айлантириш күнікмаларини таркиб топтириш билан бевосита алоқадордир. Шунингдек, соғлом турмуш тарзи оммавий ахборот воситалари орқали кенг тарғиб этилиши билан бирга, барча таълим-тарбия масканлари билан ҳамжиҳатлиқда мактаб, лицейларда бериладиган таълим-тарбия мазмунига чуқур сингдирилмоғи лозим.

Соғлом турмуш тарзини шакллантиришда талабаларни билимларини ошириш, тиббий маданиятни шакллантириш күнікмаларини ҳосил қилиш мухим ахамияттаға эга. Бұлажак үқитувчиларни соғлом турмуш тарзи асосида касбга тайёрлаш соғлом турмуш тарзи тиббий жиҳатларини анграб етиши, шахсий гигиена, жинсий тарбиянинг соғлом турмуш тарзи муаммоларига эътиборни қаратыш лозим. Шунинг учун талабаларга соғлом тафаккурни шакллантириш, соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш мақсадида малакали мутахассислар томонидан саломатлық, соғлом турмуш маданияти ҳақидағи билимларни заарли одатлар; ичкиликбозлық, наркомания, гиёхвандлық, ОИТС касалликларига чалинишини олдини олиш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқиши, амалга оширилиши керак ва бўлажак мутахассисларни соғлом турмуш тарзи асосида тиббий маданиятни ошириш кўзда тутилади.

Айниқса, заарли одатлар ва уларнинг инсон организмиға таъсири ҳақида мукаммал тушунчалар бериш, шунингдек, унга берилишнинг олдини олишда

талабаларни огоҳ бўлишга чорлаш таълим-тарбиянинг негизини ташкил этмоғи лозим. Таълим жараёнида инсон саломатлигига хавф солувчи одатларга берилиш, уларнинг организмга салбий таъсири, ўқувчи ва талабаларда бундай одатларга ружу қўйишнинг заарли жиҳатлари ҳақида тушунчалар ҳосил қилишга қаратилган бўлиб, бу ишларда қуйидаги масалаларга алоҳида тўхталиб ўтилган: мазкур одатларнинг мазмuni ва моҳияти, унга берилишни бартараф этиш йўллари ва воситалари, саломатлик учун хавф туғдирувчи, заарли одатлар (чекиш, спиртли ичимлик истеъмол қилиш, гиёҳвандлик)нинг вужудга келиши ва авж олиши, соғлом организмнинг чекиш, спиртли ичимлик истеъмол қилиш ва гиёҳванд моддаларга берилиш оқибатида қанчалик чуқур заарланиши, уларнинг шахс жисмоний ва психик жиҳатдан ривожланишига салбий таъсири кабилар. Шунингдек, заарли одатларга берилишни бартараф этишга йўналтирилган профилактика ишлари, санитария хизмати ҳам ёритилиб, таълим муассасаларида салбий хусусиятларни бартараф қилиш учун маҳсус тадбир, ижодий кечалар, ўқувчи ва талабаларнинг давра сухбатлари, семинарлар ўтказиш зарурдир.

Таълим жараёнида соғлом турмуш тарзини тарғиб этиш турли йўналишларда олиб борилиши зарур. Бу, бир томондан, ўқувчи ва талабаларга соғлом турмуш тарзига оид маълум бир тиббий-гигиеник билимларни беришга, уларда соғлом турмуш тарзининг инсон саломатлиги ва нормал ривожланишига қандай таъсир этиши ҳақида тасаввур ва тушунчаларни таркиб топтиришига қаратилса, иккинчи томондан, улар онгida таълим-тарбия шароитида гигиеник қоидаларга амал қилиш, ўзи ва ён-атрофдагилар саломатлигининг қадрига этишга оид кундалик одатлар ва кўникумларни шакллантириш билан боғлиқдир.

Табиийки, таълим муассасаси маъмурияти ва тиббиёт ходимлари биргаликда ёшлар саломатлиги ва соғлом турмуш тарзига салбий таъсир кўрсатувчи омилларнинг олдини олишга қаратилган ишларни ташкил этишлари ўқувчи

ва талабаларда соғлом турмуш тарзи самарадорлигини таъминлашга ижобий таъсир кўрсатади. Бунинг учун таълим жараёнида ўқувчи ва талабаларга соғлом турмуш тарзига оид билим ва тушунчаларни сингдириш, уларда соғлом турмуш тарзига одатланишнинг зарур кўниҳма ва малакаларини таркиб топтириш, уларни фойдали ва ибратли кун тартибига риоя этишга одатлантириш зарур. Ўқувчи ва талабаларни соғлом турмуш тарзига одатлантиришда таълим муассасалари ва оилаларда гиёхвандлик ва гиёхванд моддаларни истеъмол қилишга мойил ўқувчи-ёшларни аниқлашга қаратилган тадбирларнинг уюштирилиши, ёшлар билан ўтказиладиган тест, сўровнома ва сухбатлар воситасида ушбу масалани ўрганиш ва ҳисобга олиш, ўқувчи ва талабаларнинг бўш вақтларини оқилона ташкил этиш дастурига эга эканликларини аниқлаш, уларни турли тўгарақ ва спорт секцияларига жалб этишга қаратилган услубий тавсиялар ишлаб чиқиш зарур.

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқкан ҳолда олий таълим муассасалари талабаларида соғлом турмуш тарзини шакллантиришга ва уни ҳаётга тўғри татбиқ этишга йўналтиришимиз зарурдир.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Шарипова Д.Д ва бошқалар Талабаларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш ўқув услубий қўлланма. –Т.: Фарғона 2010.
2. Арзиқулов Р.У. Соғлом турмуш тарзи асослари. –Т.:Т.И–боб, 2009.

### **Kichik maktab yoshi bolalarida kreativ tafakkurni rivojlanish usullari**

#### **Karimova Inoyatxon Fardu 2 kurs magstranti**

Annotatsiya : maqolada kichik maktab yoshi bolalarida kreativ tafakkurni rivojlantirish bo'yicha treninglar olib borish, bolalar narsalarning o'zgarmaydigan ba'zi belgilari doimiyligini payqay olmasligi ulardagi tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Ta'limning dastlabki bosqichida bolani umumlashtirishi juda sodda bo'ladi va faqat o'xshashlik belgisiga asoslanishi bayon etilgan .



Kalit so'zlar : kreativ , bolalik , trening , sinf , o'quvchilar , xususiyat , rivojlanish , munosabat .

Kichik maktab yoshida bola narsa va hodisalarning tashqi sifat va xususiyati belgilarini guruhlarga ajratishi va tasniflashga, narsa va hodisalarning xossalari, qonuniyatlari, murakkab ichki bog'lanish va munosabatlarning muhim belgilari bo'yicha umumlashtirishga o'tadi. I va II sinf o'quvchilari o'quv faoliyatlarini buyumlarning jozibador tashqi belgilariga tayanib fikrlaydilar: quyosh, momoqaldiroq, avtomobil, qush va boshqalar to'g'risida fikr yuritishda —Quyosh isitadi, yoritadi॥ —Momoqaldiroq guldiraydi॥ —Avtomobil yuk tashiydi॥ —Qush sayraydi॥ kabi hukmlar chiqaradilar, shuning uchun agar o'rganilayotgan materiallarning muhim belgi va alomatlarini bevosita aniqlash zarurati tug'ilsa, darrov ko'rindigan misolga murojat qiladilar. O'quvchilar III sinfga o'tgandan so'ng umumlashtirishdan moddiy dunyodagi voqeylekning eng muhim munosabat va bog'lanishlarni aks ettiruvchi ichki belgilariga tayanadilar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ta'lif jarayonida ilmiy tushunchalarni o'zlashtirsalarda oldingi darslarda o'zlashtirilgan turli alomatlar, belgilar, xususiyatlarini qorishtirib, chalkashtirib ham yuboradilar. Chunki ularda tushunchalar tarkibiga kiradigan narsa va hodisalar bilan ularning belgilari o'rtasida uzviy bog'lanish tarkib topmagan bo'ladi. I va II sinf o'quvchilari uzunlik o'lchov birliklarini o'zlashtirishda ham qiynaladilar, chunki ular uzunlik o'lchovining asosiy belgisi uning uzunligini ajratishni bilmaydilar .

Ta'lif jarayonida tafakkurning analistik – sintetik faoliyati muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar tahlil qilishi jarayonida yahlit munosabatni yoki narsani bo'laklarga ajratib ularning, uzviy bog'lanishini aniqlaydi, sintezda esa buning aksini bajaradi, ya'ni bo'laklarning yaxlit buyumga bog'lanishini aniqlaydi. O'quvchilar tahlil va sintezni, taqqoslashni mashq qilish orqali narsa va hodisalarning muhim belgilarini tasodifiy bilishlaridan ajratishni o'rganadilar va shu tariqa o'zlarining mavxumlashtirish faoliyatlarini takomillashtiradilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining umumlashtirish faoliyatini rivojlanish maqsadida amalga

oshirilgan tadqiqotlardan ma'lumki, yil oxiriga borib, bolalarning o'zлari mustaqil ravishda narsalarni muhim belgilariga asosan umumlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ularda mahalliy tushunchalar, atamalar, tushunchalar miqdori keskin kamayadi. Bolalarda mavhumlashtirish va umumlashtirish usullarini o'rgatish bolalar tafakkurining rivojini yangi bosqichga ko'taradi. Ularning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, tahlil qilishning turli usularini qo'llashdan o'ziga xos xususiyatlari bilan mакtabgacha yoshdagi bolalardan va o'smirlar tafakkuridan keskin farq qiladi. Bolalar tafakkurida ma'lum darajada ustun turadi va ularning tafakkuri yosh xususiyatiga mutloq mosligini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida tafakkur operatsiyalarini, mustaqil fikirlashni o'rgatish kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni kamol toptirish garovidir. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda nutqining rivojlanishi. Maktabga kelish arafasida bolaning so'z boyligi o'z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar bu yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o'z nutqida 500–600 so'zni ishlatsa, olti-yoshli bola 3000–7000 so'zni ishlatadi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe'l, sifat, son va bog'lovchilardan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z nutqlarida qaysi so'zlarni ishlatgani afzalu, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. Ta'lim jarayonida tafakkurning analistik – sintetik faoliyati muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar tahlil qilishi jarayonida yahlit munosabatni yoki narsani bo'laklarga ajratib ularning, uzviy bog'lanishini aniqlaydi, sintezda esa buning aksini bajaradi, ya'ni bo'laklarning yaxlit buyumga bog'lanishini aniqlaydi. O'quvchilar tahlil va sintezni, taqqoslashni mashq qilish orqali narsa va hodisalarning muhim belgilarini tasodifiy bilishlaridan ajratishni o'r ganadilar va shu tariqa o'zlarining mavxumlashtirish faoliyatlarini takomillashtiradilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining umumlashtirish faoliyatini rivojlanish maqsadida amalga oshirilgan tadqiqotlardan ma'lumki, yil oxiriga borib, bolalarning o'zлari mustaqil ravishda narsalarni muhim belgilariga asosan umumlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ularda mahalliy tushunchalar, atamalar, tushunchalar miqdori keskin kamayadi. Bolalarda mavhumlashtirish va umumlashtirish usullarini o'rgatish bolalar tafakkurining rivojini yangi bosqichga ko'taradi. Ularning tafakkuri

mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, tahlil qilishning turli usularini qo'llashdan o'ziga xos xususiyatlari bilan mактабгача yoshdagi bolalardan va o'smirlar tafakkuridan keskin farq qiladi. Bolalar tafakkurida ma'lum darajada ustun turadi va ularning tafakkuri yosh xususiyatiga mutloqo mosligini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida tafakkur operatsiyalarini, mustaqil fikirlashni o'rgatish kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni kamol toptirish garovidir. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda nutqining rivojlanishi. Maktabga kelish arafasida bolaning so'z boyligi o'z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar bu yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o'z nutqida 500–600 so'zni ishlatsa, olti-yoshli bola 3000–7000 so'zni ishlatadi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe'l, sifat, son va bog'lovchilardan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z nutqlarida qaysi so'zlarni ishlatgani afzalu, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar.

O'yinning amaliy natijalari emas, balki uning qatnashchilarga baxsh etadigan mammuniyat o'yin faoliyati uchun motivlar bo'lib xizmat qiladi. O'yinda ko'p narsa xayol asosida quriladi. Bolalar mutlaqo real buyumlarsiz yoki uncha-muncha buyumlardan foydalangan xolda o'ynashlari mumkin. Shuning uchun o'ylab yuzaga keltirilgan vaziyatlar real va ko'pincha kuchli ta'sir etuvchi xis-tuyg'ular bo'lishi mumkin. Kichik yoshdagi o'quvchilarning o'yinlari juda xilma-xil bo'ladi.

1. Harakatli o'yinlar: Harakatli o'yinlarning ba'zilari sport o'yinlarga yaqinroq bo'ladi. Bu o'yinlar sog'liq uchun juda foydalidir. Bunday o'yinlarning ko'plarida shaxsiy birinchilik yoki jamoatchilik birinchiligi uchun kurashiladi. Ularda jismoniy sifatlardan tashqari shaxsning jasurlik, o'zini qo'lga ola bilish, qa'tiyatlilik singari xususiyatlarini o'stiradi.

2. Rollarga bo'linib o'ynaydigan o'yinlar. Bu o'yinlar bolalar kuzatadigan yo kattalardan eshitadigan hodisa va jarayonlarni aks ettiradi. Bu o'yinlarda har bir bola o'ziga muayyan rolni, masalan vrach, o'qituvchi, o't o'chiruvchi rolini oladi va tegishli faoliyat turini tasvirlab o'ynaydi. Ba'zan o'yin syujeti oldindan belgilab qo'yiladi, voqeа va harakatlar muayyan reja asosida avj olib boradi. Boshlang'ich

sinflarda ham ular xali ko'g'irchoq o'ynaydilar, uni allalaydilar, davolaydilar, unga ta'lim beradilar. Ba'zan ular o'yinchoqlarsiz ham o'ynayveradilar, bunda ko'pincha qo'g'irchoq o'mini ukalari va singillari egallaydi, o'zlari esa onalik burchini ado etgan bo'ladilar. Kichik maktab yoshidagi bolalarda texnikaga qiziqish paydo bo'ladi. Ularning o'zlari samolyotlar, avtomashinalar yasab ularni o'ynaydilar. Qizlar o'yinlarida maishiy xarakterdagи ishlar bilan shug'ullanishni yoqtiradilar: qo'g'irchoq uchun kiyim-kechak tikadilar, stol tuzaydilar, idish-tovoqni, qo'g'irchoq uchun tikilgan kiyim-kechakni yuvadilar va dazmollab qo'yadilar. Bunga o'xshash o'yinlar keyinchalik asta-sekin mehnat faoliyatiga aylanadi, stol ustiga qo'yib o'ynaladigan o'yinlar: bu o'yinlardan ba'zilari bilishga qiziqishni oshirish va aqliy kamolotni o'stirish uchun juda foydalidir. Rasmlи va har-xil topishmoqlar, rebuslar, o'ylashni talab qiladigan o'yinlar kabilar kiradi.

Ayni shu vaqtda ko'pchilik bolalar shashka, shaxmat o'ynay boshlaydilar. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning o'yin faoliyatidan bir chetda turmasliklari kerak. O'qituvchilar tanaffus paytida o'yinlarni kuzatib turadilar, ba'zan esa bolalarning dam olishlarini yo'lga qo'yib, o'yinlarda o'zlari ham ishtirok etadilar. O'qituvchining roli birinchi navbatda, bolalarga foydali o'yinlarga qiziqish uyg'otish, zararli o'yinlar o'ynalishiga, bolalarning urushib qolishlariga yo'l qo'ymaslik va hokazolardan iborat. Lekin o'yinga zo'r nazorat, ehtiyyotkorlik bilan rahbarlik qilish lozim. Bolalar mustaqilligini, ularni mustaqillikka bo'lgan tabiiy intilishlarini bo'g'ish yaramaydi: bolalarni oqilona o'yinlar o'ylab topishlarini va o'zlari uchun o'yinda ko'p imkoniyatlar yaratadigan ijodiyotning boshqa formalarini rag'batlantirib borish darkor.

Kichik maktab o'quvchilarida mehnat faoliyati. Bolalar mакtabga borganlarida mehnat uchun hali jismoniy va texnik jixatdan yetarlicha tayorgarlik ko'rmagan bo'ladilar. Ular hali o'z harakatlarini hamisha ham qismlarga ajratib va bir-biriga muvofiqlashtira olmaydilar, ularda ko'z bilan qo'l yetarlicha bir-biriga muvofiq tarzda ishlay olmaydi, kinestetik (muskul) sezgilari uncha o'smagan bo'ladi. Ammo 9 yoshga kirganda bolaning uncha murakkab bo'lмаган ishlarga jismoniy tayorgarligi ancha ortadi. Boshlang'ich sinflarda bolalar mehnat faoliyatiga

taylorlanadilar. Ular 1-sinfdan boshlab qog'oz, kartondan juda oddiy buyumlar tayyorlaydilar, shuni ham aytish kerakki, bu mashg'ulotlarga ular juda qiziqadilar. Birinchi sinf o'quvchilari ish jarayonining o'zi bilan mehnat natijalariga qaraganda ko'proq qiziqadilar, biroq keyinchalik ular o'z ishlarining sifatiga ham qiziqib qaraydigan bo'ladilar. Ular o'zlari yasagan buyumlarni namuna bilan taqqoslab ko'radilar va ishni aniq bajarishga intiladilar. Agar birinchi sinfda bolalar o'z xatolaridan ko'ra ko'proq o'rtoqlarining ishdagi kamchiliklarini sezsalar ikkinchi va uchinchi o'quv yilida o'z mehnatlari mahsuliga ham ancha tanqidiy munosabatda bo'ladilar, uning sifatini baholashga ob'ektivroq yondoshadilar. Qo'lidan keladigan mehnat mashg'ulotlari bolalarda avvalo bu mashg'ulotlar harakatlanish bilan bog'liq bo'lgani uchun quvonch xislarini yuzaga keltiradi. Lekin tez orada maqsadsiz mehnat kichik yoshdagi o'quvchini qiziqtirmay qo'yadi. Agar u masalan tayyorlagan o'yinchoqlardan eng yaxshilari bolalar bog'chasidagi kichkintoylarga berilishini bilsa o'z ishiga zo'r mas'uliyat bilan kirishib ketadi va uni yaxshilab bajarish uchun bor kuchini ishga soladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativligini rivojlantirish uchun o'qituvchilar ularni obrazli fikrlashga undashi; muammoni aniq ifodalashi; fikrning doimo tugallangan jumla bilan hamda muhim joylariga urg'u berib ajratgan holda ifoda etishi; xushmuomalali va ziyrak bo'lishi kerak . Shuningdek, o'qituvchi o'quvchiga o'z psixologik ta'sirini nigoh orqali o'tkazishi, har bir javob va taklif uchun rag'batlantirishi kerak. Kreativlikni rivojlantirish uchun o'qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanshlari maqsadga muvofiq. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ijodiy tafakkur, kreativlikni rivojlantirish usullaridan psixologik trening eng samarali usuldir.

#### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Jalolova M. SENSORY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL AGE //Archive of Conferences. – 2021. – T. 25. – №. 1. – C. 153-157.
2. Jalolova, Mohinur. "SENSORY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL AGE." Archive of Conferences. Vol. 25. No. 1. 2021.

- 3.Jalolova, M. (2021, May). SENSORY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL AGE. In Archive of Conferences (Vol. 25, No. 1, pp. 153-157).
- 4 ИСАКОВА М. Т. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН) //СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН) Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Центр инновационных технологий". – №. 8. – С. 45-52.
- 5.ИСАКОВА, МУЪАЗАМ ТУЛКИНОВНА. "СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН)." СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН) Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Центр инновационных технологий" 8: 45-52.
- 6.ИСАКОВА, М. Т. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН). СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН) Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Центр инновационных технологий", (8), 45-52.
7. Nuraliyeva D. M. STUDYING SUSCEPTIBILITY TO THE BEHAVOIR OF THE PAIR IN THE RELATIONSHIP BETWEEN MAN AND WOMAN AND GIVING A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL HELP //Теория и практика современной науки. – 2018. – №. 5. – С. 32-34.
- 8.Nuraliyeva, D. M. "STUDYING SUSCEPTIBILITY TO THE BEHAVOIR OF THE PAIR IN THE RELATIONSHIP BETWEEN MAN AND WOMAN AND GIVING A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL HELP." Теория и практика современной науки 5 (2018): 32-34.
- 9.Nuraliyeva, D. M. (2018). STUDYING SUSCEPTIBILITY TO THE BEHAVOIR OF THE PAIR IN THE RELATIONSHIP BETWEEN MAN AND WOMAN AND GIVING A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL HELP. Теория и практика современной науки, (5), 32-34.



**GEOGRAFIYA FANINI O‘QITISHDA NOSTANDART TEST  
TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH**

*Abdullayeva D.N. – Toshkent davlat pedagogika universiteti “Geografiya va uni  
o‘qitish metodikasi” kafedrasи dotsent v/b., PhD.*

*Email: [dilnozaabdullayeva699@gmail.com](mailto:dilnozaabdullayeva699@gmail.com)*

*Tel: 99 141-07-57*

Geografiya fanini o‘qitishda test savollari, ayniqsa nostandard test topshiriqlaridan foydalanishning ahamiyatli tomonlaridan biri shundaki, ular yordamida qisqa vaqt davomida o‘quvchilarning juda ko‘p mavzulardan olgan bilimlarini sinab ko‘rish va aniqlab olish imkoniyati yuqori bo‘ladi. Nostandard testlardan foydalanish birinchi navbatda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, mavzuda o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ishlash, o‘z fikrini bayon eta olish, muayyan jarayon, ob’ekt yoki voqeanning mohiyatini tushuntirish, mazkur jarayon, ob’ekt yoki voqeanning o‘ziga xos xususiyatini ajratib ko‘rsata olish kabi ijobiy fazilatlarni shakllantiradi va rivojlantiradi. Shu bilan birga nostandard test topshiriqlarini tuzish geografiya fan o‘qituvchisida ijodkorlik (kreativlik)ni shakllantirib, uni rivojlantiradi, o‘z ustida ishlashga, o‘zining bilimiga tanqidiy munosabatda bo‘lishiga olib keladi. Shuningdek, fan o‘qituvchisi mavzuni o‘qitishda yo‘l qo‘ygan kamchiliklarni aniqlashga imkon beradi hamda iqtidorli, izlanuvchan o‘quvchilarni aniqlashga yordam beradi.

1920-yildan boshlab AQShning ayrim shtatlari maorif bo‘limi testlar bo‘yicha imtihon olish tajribasini boshlaganlar va 1930-yillardan keyin bunday usul AQShning hamma maktablarida qo‘llanila boshlangan, testlar tuzish bo‘yicha kooperativ xizmati tashkil qilingan. Uning asosiy vazifasi, AQShning mакtab va kollejlarida o‘quvchilar o‘zlashtirishini ko‘rsatilgan talablar asosida aniq baholash mezonlari bilan ta’minlashdan iborat bo‘lgan. Keyinchalik bu xizmat ta’lim testlari xizmatiga aylantirilgan. Imtihonlar bo‘yicha kengash testlarning ma’lumotlarini kollej va universitetlarga kiruvchilarning bilimini tekshirishda ishlatila boshlangan.

**Nostandard testlar** mazmuni va mohiyatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratiladi: integrativ, adaptiv va mezonli-mo‘ljal olish testlari. Integrativ testlar integral mazmun, shakl, qiyinlik darajasi bo‘yicha o‘sib boruvchi, ta’lim muassasasi bitiruvchisining tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi. Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, o‘quvchilarga

nisbatan individual yondoshish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartib-qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida o‘quvchining egallashi mumkin bo‘lgan ballari va test natijalarini umumlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalardan iborat bo‘ladi. Adaptiv testlarning asosiy guruhini piramidal adaptiv testlar tashkil etib, qo‘llanish maqsadiga ko‘ra: o‘rtacha og‘irlikdagi, o‘quvchining tanlashiga ko‘ra aralash, topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo‘lishi mumkin. Bu testlar ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning modul-kredit tizimida muvaffaqiyatli qo‘llaniladi. Buning uchun fan o‘qituvchisi bitta mavzu, bob, bo‘lim, kurs mazmuni bo‘yicha turli qiyinlik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo‘llash mahoratiga ega bo‘lishi lozim. Mezonli-mo‘jal olish testlari o‘quvchilarining umumiyligi tayyorgarlik darajasi, mazkur kursning o‘qitilish sifati, fan o‘qituvchisining pedagogik mahorati, ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Geografiya ta’limida nostandard test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o‘rinni egallaydi. Shu sababli, test topshiriqlari mazmunini tanlash quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

**1. Test topshiriqlari mazmuni sinov maqsadiga mosligi.** Mazkur prinsip o‘quvchilarining geografiya fanidan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashni reyting tizimining nazorat turlarida test topshiriqlarining mazmuni maqsadga muvofiq tanlanishini talab etadi. **2. Nazorat va baholanayotgan bilimlarning muhimligi.** Muhimlik prinsipi test topshirig‘i savollariga o‘quv dasturidagi eng muhim qonun, nazariya, tushuncha va ko‘nikmalarni kiritishni talab etadi. Bu jarayonda ikkinchi darajali ma’lumotlar, raqamlar va faktik materiallar test topshiriqlariga kiritish tavsiya etilmaydi. **3. Mazmun va shakl birligi.** Mazkur prinsip test topshiriqlarining mazmuni va shakli bir-biriga mos, yaxlitlikni tashkil etishini talab etadi. **4. Test topshiriqlarining mazmunan to‘g‘riligi.** Test topshiriqlariga o‘quv kursi mazmunidagi ob‘ektiv va haqiqiy bilimlar kiritilishi maqsadga muvofiq. Mazmundagi babs va munozaraga olib keladigan masalalar test topshiriqlariga kiritilmasligi lozim. Bu holat o‘quvchilarining o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini bermaydi.

**5. Test topshiriqlari mazmunida o‘quv kursi mazmunining qayta taqdim etilishi.** Mazkur prinsip test topshiriqlarini tayyorlashda o‘quv kursi mazmunini to‘liq

va yetarli darajada qamrab olinishini nazarda tutadi. O‘quv kursi bo‘yicha tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonida mavzulararo, boblararo, bo‘limlararo va fanlararo bog‘lanishlarga yetarli darajada e’tibor qaratilgan, mazmunan bu jarayon o‘quv materialida o‘z aksini tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishlar shaklida topgan bo‘lsa, bunda hamma mavzular bo‘yicha emas, balki tanlangan asosiy mavzular va boblar bo‘yicha test topshiriqlari tayyorlanadi. **6. Test topshiriqlari mazmuni fanning hozirgi zamon holatiga mosligi.** Mazkur prinsip test topshiriqlari mazmunini jamiyatimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy qarashlar, huquqiy me’yoriy hujjatlar, fanning o‘quv kursi ta’lim mazmuniga kiritilgan fan yangiliklariga moslashni talab etadi. **7. Test topshiriqlari mazmunining majmuali va muvozanatlashgan bo‘lishi.** Mazkur prinsip test topshiriqlari mazmunini tanlashda maqsadga muvofiqlikni keltirib chiqaradi, nazorat uchun tuzilayotgan test topshiriqlarining mazmuni uning turi va qo‘llanishini e’tiborga olingan holda bob, bo‘lim yoki kurs mazmunini to‘liq qamrab olishni taqazo etadi. **8. Test topshiriqlari mazmunining tizimliligi.** Bunda test topshiriqlari mazmunini tanlashda, mazmun o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishda tizimlilik talablariga javob berishi, bir-biri bilan uzviy bog‘langan bilimlarning umumiyligi, jihatlarini aks ettirishi zarur. **9. Test topshirig‘i mazmunining variativliligi.** Test topshirig‘i birinchi marta amaliyotga joriy etilganda, ularning mazmuni o‘quvchilarga ma’lum bo‘lib qoladi va test javoblari haqidagi axborotning chetga chiqib ketish hollarining oldini olish uchun, mazkur prinsip test savollari va javoblarini ko‘p variantli qilish, ularni almashtirib, yangilab turishni taqazo etadi. Bu holatda test topshiriqlarining mazmuni va uni bajarish qiyinlik darajasini saqlash lozim bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alimkulov N.R., Raximova Ch.N., Xabibullaeva D.Sh. “Oliy ta’lim geografiya fanlarini o‘qitishda nostandard testlarning o‘rni”. Yangilanayotgan O‘zbekistonda geografiya: fan, ta’lim va innovatsiya. Resp.ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 15.12.2022.
2. Avezov Sh., Saydamatov F.R., Sultonova N. Tabiiy geografiya: standart va nostandard test topshiriqlari. T.: 2019.
3. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya. T.: 2016.
4. Vaxobov X., Alimkulov N.R., Sultonova N.B.. Geografiya o‘qitish metodikasi. “Nodirabegim”, T.: 2021.

# **GEOGRAFIYA TA'LIMIDA VOQEA VA HODISALARINI TASVIRLAYDIGAN O'QUV VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI**

**Janzakov A.B**

*Nizomiy nomidagi TDPU “Geografiya va uni o'qitish metodikasi”  
kafedrasi dotsent v/b., p.f.f.d. (PhD)*

**Usmonova M.**

atrofdagilami sog'lig'ini asrashni kundalik odatga aylantirish ko'nikmalarini shakllantirishga bog'liqdir. Bu borada sog'lom turmush tarzi ommaviy axborot vositalarida, barcha tarbiya o'choqlari bilan hamjihatlikda litsey, kollejlarda keng targ'ib qilinmog'i zarur. Oliy ta'lim miqyosida, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ijtimoiy ta'minot va mehnat vazirligi, Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi, shuningdek, «Sog'lom avlod uchun», «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, «Iste'dod», «Mehnuri», «Ulug'bek», «Nuroniy», «Oydin Hayot» kabi ko'plab nodavlat tashkilotlarining mahalla bilan yaqindan o'zaro hamkorligi bo'lmog'i lozim. Sog'lom turmush tarzi - bu insonning hayoti va salomatligi xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikmalarga ega bo'lish asosida hayotiy faoliyatni yo'lga qo'yish hamda salomatligining yuqori darajada bo'lishiga erishishni ta'minlovchi ijtimoiy hodisadir. Sog'lom turmush tarzi - inson turmush sharoitlarini faol o'zlash-tirish usuli bo'lib, kun tartibiga rioxo\_ qilish, faol harakat asosida organizmni chiniqtirish, sport bilan shug'ullanish, to'la va sifatli ovqatlanish, ovqatlanishning gigienik qoidalariga rioxo qilish, muloqot va ekologik madaniyatga erishish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya olish, zararli odatlardan o'zini tuta bilish demakdir. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish predmetining maqsadi va vazifalari: - shaxs hayoti va salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillami bartaraf etish borasidagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalami o'zlashtirishga erishish; - kun tartibiga qat'iy amal qilish; -muntazam ravishda chiniqib borish, faol jismoniy xarakatni tashkil etish hamda sport bilan doimiy shug'ullanishga erishish; - to'g'ri ovqatlanish qoidalarining moxiyati va ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlami puxta o'zlashtirish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish; - shaxsiy salomatlikni saqlashga nisbatan mas'uliyatni qaror toptirish; — atrof-muxitni muxofaza qilish, ekologik madaniyat qoidalariga ega bo'lish; - turli xildagi jarohatlanish va baxtsiz hodisalaming oldini olish layoqatiga ega bo'lish; — salbiy odatlami o'zlashtirish (tamaki mahsulotlarini chekish, narkotik moddalar va spirtli ichimliklami iste'mol qilish)tiing rag'bat yuzaga kelmasligini ta'minlash; - jins sifatida to'g'ri tarbiyalanish, shaxsiy gigiena qoidalaridan xabardor bo'lish va ularga og'ishmay amal qilish; — o'zida yuksak axloqiy sifatlar, kuchli va

mustahkam irodani hosil qilishga erishish, shuningdek, psixogigiena talablariga amal qilish; - hayotning umumiylarsasi - turmush muammolariga qarshi kurasha olish, milliy istiqlol g'oyasi va mafkura tamoyillariga zid bo'lgan aqidalarga qarshi immunitetni hosil qilish yo'lida nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish va hokazolar (A.Isimova, 2004) dan iboratdir.

«Sog'lomlik» tushunchasi insoniy madaniyat sohasi sifatida o'zida uch tuzulish (tana, qalb, zehn) borligini o'zida aks ettiradi. Bu borada ijtimoiy-pedagogik merosda shaxsning sog'lomligi va uning negizi masalalariga doir fikrlar alohida o'ren tutadi. Jumladan, Abu Ali ibn Sino (980-1037) «Tibbiy o'gitlar» fundamental tadqiqoti tarkibiga kiruvchi «Shifo» asarida go'daklik davridan 9-10 yoshgacha bo'lgan bolalarning sog'ligi va tarbiyasi to'g'risida fikr yuritadi. Mutafakkirning fikricha, go'dak va bola yoshidagi yosh avlod «jismoniy, aqliy, ma'nani va axloqiy tarbiyalanishi» va bunda «ular jismoniy sog'lomlik, aqliy o'sish va axloqiy rivojlanish» bilan ta'minlanishi kerak<sup>1</sup>.

Demak, sog'lomlik - bu jismoniy (o'z tanasini, o'z harakatlarini boshqara olish qobiliyati); fiziologik (organizmdagi fiziologik jarayonlami boshqarish va ulaming rezerv quvvatini uzaytirish layoqati); psixik (o'zining sezgilari, hissiyotlari, emotsiyalarini boshqara olish); intellektual (o'z fikrlarini boshqara olish qobiliyati) madaniyat yig'indisi; inson salomatligi - bu uning shaxsiy faoliyati natijasi;

- sog'lomlik darajasini inson tiriklik quwatining hajmi, jamg'armasi aniqlab beradi; salomatlik yo'li — bu tiriklik kuchini saqlash, mustahkamlash va yaxshilash yo'lidir;

- salomatlik - bu organizm moslashuvchanlik imkoniyatlari darjasи, uning tashqi ta'sirlarga mos javob bera olish qobiliyati va yashash sharoitlarida yuzaga keladiganlarga muvofiqligi, inson hayotiy kuchining o'zgaruvchan sharoitlar (ekologik, ijtimoiy va b.) ga bardoshliligi;

- har bir insonning salomatligi uning atrofidagi odamlaming salomatligi bilan bog'liqlikda mavjud bo'ladi;

- ommaviy ta'lim tizimi bola va butun insoniyat salomatligiga zarar etkazish mexanizmlarida aks etadi, chunki har bir inson hayoti u bilan bog'langan: o'zi o'qiydi, bolalari o'qiydi, nevaralari o'qiydi. Sog'lomlik belgilari quyidagilarda aks etadi:

- zararli omillar harakatiga spetsifik va nospetsifik chidamlilik; o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari;
- organizmni fikrtsional holati va rezerv imkoniyatlari;
- qandaydir kasallik yoki rivojlanishdagi nuqsonning mavjudlik darjasи;
- axloqiy-irodaviy va qadriyatli-motivatsion ko'rsatmalaming darjasи.

Inson salomatligi qator omillarga bog'liq bo'lib, agar ulami sxematik tarzda tasvirlansa, mazkur sxema o'zida

---

<sup>1</sup> X.X.Хамзаев. Бўлажак бошлангич синф ўқитувчиларини ўқувчиларда ижтимоий фаоллик кўникмаларини шакллантиришга тайёрлаш тизимини такомиллаштириш: пед.фан.бўй.фал.док.дисс. – Нукус, 2019. – 151 б.

uchta tushunchani hosil qiladi: a) insonning biologik imkoniyati; b) ijtimoiy muhit; v) tabiiy-iqlimi sharoit. Valeologiya - inson salomatligi haqidagi fan bo'lib, sog'lomlikning ancha yomonlashuvi bilan bog'liqlikda XX asming so'nggi o'n yilligida vujudga keldi. Valeologi atamasi lotinchadan valeo - sihat-salomatlik, sog'lom bo'lmoq va yunoncha logos - ta'limot, fan so'zlaridan kelib chiqqan hamda tibbiyot fanida XX asming 80-yillarida professor I. I. Braxman (1982) tomonidan kiritilgan. Hozirgi vaqtida mazkur atama fanda - fundamental va zaruriy bo'lib, birinchi navbatda, o'sib kelayotgan avlodni o'qitish, tarbiyalash, profilaktik ishlar, davolash psixofizik reabilitatsiyaga o'zini bag'ishlamoqchi bo'lgan kishilar uchun zaruriy tarzda namoyon bo'ldi. Bu eng avvalo, pedagogik oliy ta'lim muassasalarining talabalariga tegishlidir, chunki pedagogning kelgusi mehnat faoliyati - bu qanday qilib o'z o'quvchilarini to'g'ri o'qitish, o'rgatish, ko'nikma va malakalarga odatlantirish, to'g'rirog'i qanday qilib o'z sog'lig'ini saqlash muhim va zarurligi masalasi. Zamonaviy hayot tarzi pedagogik oliy ta'lim muassasasi talabalari oldiga yuksak talablami qo'yemoqda. Pedagogning yuqori kasbiy tayyorgarligi, mustahkam sog'lig'i va davomli ijodkorlik-mutaxassisning hayotiy muvaffaqqiyatining asosiy o'zagidir. Faqat sog'lom odam yaxshi kayfiyat, ko'tarinkilik, psixologik bardoshlilik, yuqori aqliy va jismoniy ishchan qobiliyat bilan faol yashash (yuqori hayotiy qarash)ga, kasbiy va maishiy qiyinchiliklami muvaffaqqiyali engib o'tishga qodir. Valeologiya inson salomatligiga aniq hayotiy faoliyat sharoitlarida uni ta'minlash, shakllantirish, saqlash va mustahkamlash yo'llari haqidagi fanlararo yo'nalishdir. Valeologiya tibbiyot, psixologiya, falsafaning turli sohalaridan foydalanuvchi integrativ fan sifatida aks etadi. Valeologik tarbiya hayotiy qadriyatlar va umummadaniy dunyoqarashning ajralmas qismi sifatida barpo etiladigan salomatlik va sog'lom turmush tarzining qadriyatliyo'naltirilgan ko'rsatmalarini shakllantirish jarayonidir. Valeologik tarbiya jarayonida insonda ijobiy qiziqish va ehtiyojlarga asoslangan salomatlikka emotsiyonal, shu bilan birga, ongli munosabatni sotsiumga ongli idrok va munosabatga, ijodkorlik va ma'naviy dunyosini boyitishga, o'z salomatligini takomillashtirishga, atrofdagi odamlaming salomatligiga ehtiyojkorona munosabatda bo'lishga ishtiyoqni rivojlantiradi. Valeologik bilim salomatlik sohasida insoniyat tomonida to'plangan hamda fanning va valeologik bilimlaming o'zining keyingi rivoji uchun boshlang'ich zaxirani o'zida aks ettimvchi ilmiy asoslangan tushunchalar, g'oyalar, omillar yig'indisidir. Valeologik ta'lim natijalari insonda o'zining genetik, fiziologik va psixologik imkoniyatlarini, o'z sog'lig'ini nazorat qilish, asrash va rivojlantirish metod va vositalarini ko'zda tutuvchi bilimlami, atrofdagilarga valeologik bilimlami yoyish ko'nikmasiga ega bo'lgan valeologik madaniyatni qaror toptirishi zarur.



**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Aminov V. Soglon turmush tarzi - inson omilini kuchaytirish garovi. - T: Meditsina, 1999
2. Mo'minov X. Sog'lom turmash - sog'liqqa yo' 1. - Urgench, 1996.
3. Maxkamov M., Sodiqov O- Sog'lom avlod yarataylik. -T., «O'qituvchi» 1996 y
4. Лодкина С.Р. Валеология: учебно-методическое пособие. - Челябинск, 1996.
5. Байер К. Шейнберг Л. Здоровый образ жизни. - М.: Мир, 1997.
6. Ҳ.Ҳ.Ҳамзаев. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини ўқувчиларда ижтимоий фаоллик қўнималарини шакллантиришга тайёрлаш тизимини такомиллаштириш: пед.фан.бўй.фал.док.дисс. – Нукус, 2019. – 151 б.
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

**BIOLOGIYA FANINI O`QITISH JARAYONIDA O`QUVCHILAR  
IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHDA EKSKURSIYALARING O`RNI**

**Raxmatullayeva Anor Qayrullayevna**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakul'teti  
Biologiya kafedra o'qituvchisi.

**ANNOTATSIYA**

Biologik ob'ektlarni o'rGANISHNI tabiatda bevosita kuzatish va tadqiqotlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buning uchun maxsus darslar - ekskursiyalar mavjud. Dastlab darsdan va muktabdan tashqari ishlarning fakultativ shakllari sifatida vujudga kelgan biologik ekskursiyalar asta-sekin o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakli sifatida darsga ma'lum darajada tayangan holda uning ajralmas tarkibiy qismi sifatida o'quv jarayoniga kiritilgan. Biologiya o'qitishga ekskursiyalarni joriy etish muktab biologik ta'limi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalar va ta'limning ushbu shakli o'qituvchilar va o'quvchilar uchun ochadigan imkoniyatlar bilan belgilanadi.

Ekskursiyalar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular o'quvchilarning bilimini kengaytiradi va chuqurlashtiradi.O'quvchilarning fanga bo'lgan muhabbati, biologiyaning ma'lum bir sohasiga qiziqishi ko'pincha mohirona o'tkazilgan ekskursiyada tug'iladi. Bu tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** Ekskursiya, laboratoriya, metod, o'simlik, hayvon.

## KIRISH

O'rta maktabda biologiya o'qitish kursida ekskursiyalarini o'tkazishning maqsadga muvofiqligini va ulardan foydalanish metodikasini aniqlash mavzuning asosiy maqsadini tashkil etadi. O'qituvchining iqtidorli o'quvchilar bilan barcha ko'rinishdagi faoliyati biologik tushunchalarni, dunyoqarashni, fikrlash va mustaqil amaliy ish ko'nikmalarini birlikda rivojlantiruvchi maqsadli ta'lif va tarbiya tizimi bo'lsagina biologiyani o'qitish muvaffaqiyatli bo'ladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ekskursiya kabi ta'lif shaklidan foydalanish zarurati shundan iboratki, ularni o'tkazish, kuzatish, o'quvchilar sezmasdan o'tib ketadigan hodisalar va narsalarni ko'rish qobiliyati rivojlanadi.Shuning uchun ekskursiyalar maktablarda biologiya o'qitishni tashkil etishning muhim shakli bo`lib, ular davomida nazariya va amaliyot o'rta sidagi bog`liqlik yo`lga qo`yiladi, o'quvchilar e`tibori sinfda o`rganish mumkin bo`limgan tabiat hodisalariga qaratiladi. Ekskursiyalarda tabiat bilan muloqot bilimlarni hissiy idrok etishga yordam beradi, o'simliklar va hayvonlarni insonning zararli ta'siridan himoya qilish zarurligiga ishontiradi. Ekskursiya ta'limning mustaqil shakli hisoblanib, zamonaviy maktabda tarbiyaviy ishlar tizimining muhim qismi bo`lib, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga katta hissa qo'shadi. Ekskursiya darslarining asosiy afzalligi tarixiy va madaniy yodgorliklarni tabiiy holatida yoki muzey ekspozitsiyasida yaxshi ishlangan holda ko'radigan o'quvchilarning "mavjudlik effekti"dir. Bu dars-ekskursiyani yuqori darajada bilishga yordam beradi, chunki uning davomida o'quvchilarning hissiy idroki va hissiy sohasi ta'sirlanadi.

Bunday dars-ekskursiyalarning mazmuni oldingi darslarda o'tilgan material bilan bevosita bog'liq bo`lib, shu bilan birga olingan g'oyalar, kuzatishlar natijalari va



tabiatda to‘planganlar g’oyalar keyingi ko‘plab darslarda qo‘llaniladi. O‘qituvchi yillik rejada ekskursiyalarni o’tkazish sanalarini oldindan belgilab beradi va tegishli mashg’ulotlarda rejalashtirilgan ekskursiya oldidan o‘quvchilarga tabiatning o‘zida o‘rganilayotgan hodisalar bilan tanishish uchun sharoit yaratadi.

Shu bilan birga, tabiatan aniqlanishi kerak bo‘lgan savollar ta’kidlanadi, ekskursiyaga tayyorgarlik ko‘rish nuqtai nazaridan takrorlash va material bilan oldindan tanishish uchun topshiriqlar beriladi. O‘qituvchi ekskursiya o’tkazilgandan so‘ng ham o‘z fikr-mulohazalarini bildiradi, masalan, ko‘rgan narsalarini eslab qoladi va to‘plangan materialdan ko‘rgazmalar va amaliy ishlar uchun qanday foydalanish kerak kabilar.

Dars-ekskursiyalarni o’tkazish usullari o‘quvchilarni yer yuzida harakat qilish, kuzatish, taqqoslash va hodisalar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish, kerakli narsalarni topish, mustaqil ish ko‘nikmalarini - tabiatni elementar o‘rganish ko‘nikmalarini egallashga o‘rgatadi.

Ekskursiya darslari o‘quvchilarga ta’lim mazmunini keng, har tomonlama yoritib borishga, darslarda o‘rganiladigan fizika va kimyo, fizika va biologiya, tarix va geografiya fanlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rishga yordam beradi, shuning uchun maktab ekskursiyasi boshqa har qanday fanlardan ko‘ra ko‘prokdir. ta’lim shakli, fanlararo aloqalarni amalga oshirishga yordam beradi.

Maktab iqtidorli o‘quvchilarini zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi kerak. Sinfda, to‘garaklarda, fakul’tativ mashg’ulotlarda iqtidorli o‘quvchilar eng muhim ilmiy kashfiyotlar bilan tanishadilar. Ko‘pincha maktab ekskursiyalarida iqtidorli o‘quvchilar oddiy tadqiqotlar o’tkazadilar: ular tuproq yoki barglarni kimyoviy tahlil orqali o‘rganadilar, meteorologik yoki fenologik kuzatuvlari olib boradilar va o‘z ona yurtlari tarixi bo‘yicha materiallar to‘playdilar. Shu bilan birga, ular ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanadilar, ilmiy faoliyatga qo‘shiladilar. Ekskursiya davomida o‘quvchilar bilimlarni yangi vaziyatga o’tkazadilar, kognitiv muammolarni hal qilishning yangi usullarini kashf etadilar.

Demak, ekskursiyalarni o`quv jarayoni rejasiga kiritish ularning mazmuni bilan oldingi darslarda o`tilgan material o`rtasidagi bog`liqlikni o`rnatish imkonini beradi. Ekskursiya davomida olingan g`oya va bilimlar, kuzatishlar natijalari ko`plab keyingi darslarda, shuningdek, sinfdan tashqari ishlarda va fakul'tativ mashg'ulotlarda qo'llanilishi mumkin.

Ekskursiyaga tayyorgarlik bosqichlarda amalga oshiriladigan jarayonlar:

- Ekskursiya mavzusini tanlash va uning maqsadini aniqlash.
- Ekskursiya mavzusi bo'yicha tarkibni tanlash.
- Ekskursiya ob'ektlarini tanlash va o'rganish.
- Ekskursiya marshrutini tuzish.
- Usullarni tanlash.
- Ekskursiyaning konspektini tayyorlash.

Sinfda ham, ekskursiyadan oldingi darsda bo'lajak ekskursiya mavzusiga kirish so'zlab berish, shu bilan ekskursiya va o'rganilayotgan mavzu mazmuni o'rtasida zarur aloqani o'rnatish, o'quvchilarga savollar berish tavsiya etiladi, buni faqat ekskursiyada hal qilish mumkin, o'quvchilarni guruhlarga bo'lish, ularga topshiriqlar berish, qo'shimcha adabiyotlarni oldindan o'rganishni talab qiladigan masalalarni qayd etish. Ayrim hollarda o'quvchilar ekskursiya davomida mustaqil ishslash uchun oldindan topshiriqlar oladilar.

X-XI sinflarda ekskursiya davomida mustaqil ishslash uchun oldindan topshiriqlar beriladi. Bu topshiriqlar, umuman olganda, rejalahtirilgan ekskursiya mavzusining mazmunini to'ldiradigan bir qator masalalarni o'z ichiga oladi. Har bir savol bir qator ob'ektlar va hodisalarini o'rganishni talab qiladi. Ob'ektlar har xil bo'lishi mumkin, agar ular umumiy naqshni aniqlashga imkon beradi.

## **Xulosa**

Ekskursiyalarning mazmuni oldingi darslarda o`tilgan material bilan bevosita bog`liq bo'lib, shu bilan birga, ekskursiya davomida olingan g`oyalar va bilimlar, kuzatishlar natijalari hamda to'plangan tabiiy materiallardan keyingi ko`plab darslarda foydalanish mumkin, darslarda, shuningdek, sinfdan tashqari ishlarda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda. Ekskursiyalarni o'quv jarayoni rejasiga kiritish

ularning mazmuni va oldingi darslarda o'tilgan material o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish imkonini beradi. Ekskursiya davomida olingen g'oya va bilimlar, kuzatishlar natijalari ko'plab keyingi darslarda, shuningdek, sinfdan tashqari ishlarda qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, o'quvchilarning loyiha faoliyatida, bu shaxsni rivojlantirish va uning yovvoyi tabiat bilan malakali o'zaro munosabatini rivojlantirish vositasidir. Loyiha usulidan foydalanish samaralidir, chunki iqtidorli o'quvchilar loyiha ustida ishlash jarayonida real jarayonlarni idrok etadilar, hodisalarga chuqur kirib boradilar, davom etayotgan jarayonlarni tushunadilar va hokazo.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. J.O.Tolipova. Pedagogical technologies in teaching biology.Tashkent - 2011.
2. Mirzayeva, N. A. (2020). RELEVANCE AND PEDAGOGICAL BASIS DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL COMPETENCE IN STUDENTS.*Science and Education*, 1(7).
- 3.Анора Қайруллаевна Рахматуллаева БИОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ЛАБОРАТОРИЯ МАШФУЛОТЛАРИНИНГАҲАМИЯТИ // Academic research in educationalsciences. 2020. №3.
4. Urinboyeva Nilufar Akromjon qizi, Rakhmatullayeva Anor Kairullayevna INCREASING STUDENT NATURAL LITERACY REQUIREMENTS FOR STEAM APPROACH //International Conference onHumanities, Education and SciencesLos Angeles, California, USAFebruary 25th 2022conferencezone.org. 104-112.
5. Urinboyeva Nilufar Akromjon qizi , Rakhmatullayeva Anora Kairullayevna 7TH GRADE ZOO LOGY IN THE DEPARTMENT OF "SIMPLE ANIMALS" LEARNING USING MODERN ELECTRONIC RESOURCES. London Conerence Proceedings 2021. International Conerence on Humanities, Education and Sciences December 15th, 2021. 153-156

# **BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TEXNOLOGIYANING AHAMIYATI**

**Raxmatullayeva Anor Qayrullayevna**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakul'teti  
Biologiya kafedra o'qituvchisi

## **ANNOTASIYA**

Muammoli ta'lismi rivojlantiruvchi ta'lismi turlaridan biridir. Rivojlantiruvchi ta'lismi usullari ijodiy shaxsni rivojlantirishga qaratilgan: faqat o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatli yashashi va to'liq faoliyat ko'rsatishi, bu dunyonni o'zgartirishi, unga yangi yangiliklarni olib kirishi mumkin, u mustaqil ravishda standart bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdan tashqari, qobiliyat, mustaqil tanlov qilish, o'z qarorini qabul qilishga ega.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, muammo, metod, iqtidor, genetika.

## **KIRISH**

Bugungi kunda muammoli ta'lismi deganda o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilish bo'yicha o'quvchilarining faol mustaqil faoliyatini o'z ichiga olgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish tushuniladi, buning natijasida ijodiy o'zlashtiriladi, bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat va aqliy qobiliyatlarni rivojlantiriladi.

Muammoli ta'limning maqsadi: universal ta'lismi faoliyatini shakllantirish, nazariy fikrlash, kognitiv faollik, qiziquvchanlik, bilimdonlik, ijodiy fikrlash va boshqa shaxsiy muhim fazilatlarni rivojlantirish.

Muammoli ta'limning kontseptual g'oyalari:

- bilim tayyor shaklda berilmaydi, balki ajratib olinadi va ochiladi;
- yuqori darajadagi murakkablikdagi mashg'ulotlar;
- izlanish va tadqiqot usullari bo'yicha o'qitish;
- umumiyyadan xususiyga o'rGANISH mantig'i;
- aqliy harakatlar usullaridan xabardorlik;

- o'rganish ob'ekti sifatida o'ziga qaratilgan faoliyatning maxsus shaklini rag'batlantirish.

Muammoli ta'limda faoliyat algoritmi:

Muammo gipoteza qurish faktlarni aniqlash faktlarni tahlil qilish xulosalar yangi bilimlar.

O'quvchilarning kognitiv mustaqillik darajasiga ko'ra muammoli ta'lim uchta asosiy shaklda amalga oshiriladi: muammoni taqdim etish, qisman qidiruv faoliyati va mustaqil tadqiqot faoliyati.

O'quvchilarning eng kam kognitiv faolligi muammoni taqdim etishda sodir bo'ladi. Muammoni shakllantirgandan so'ng, o'qituvchi uni hal qilish yo'llarini ochib beradi, o'quvchilarga ilmiy fikrlash yo'llarini ko'rsatadi, ularni fikrning dialektik harakatiga ergashtiradi, bolalarni, go'yo, ilmiy izlanishda sherik qiladi.

Qisman izlanish faoliyati sharoitida ish asosan o'qituvchi tomonidan, oquvchilarni mustaqil fikrlashga, muammoning alohida qismlariga javob izlashga undaydigan maxsus savollar yordamida boshqariladi.

Muammoning o'zagi nimada? U noma'lumni o'z ichiga oladi (bu yangi o'zlashtirilgan munosabat, usul yoki harakat sharti bo'lishi mumkin). Ko'rinish turibdiki, qiyinchilikka duch kelishning o'zi, taklif qilingan vazifani mavjud bilim va harakat usullari yordamida bajarishning mumkin emasligi yangi bilimlarga ehtiyojni tug'diradi. Bu ehtiyoj muammoli vaziyatning paydo bo'lishining asosiy shartidir. Muammoli vaziyatning yana bir tarkibiy qismi sifatida, topshirilgan vazifani bajarish shartlarini tahlil qilish va yangi bilimlarni o'zlashtirish (kashf qilish)da o'quvchining intellektual imkoniyatlari ajralib turadi. Natijada qiyin, oson vazifa muammoli vaziyatga hissa qo'shmaydi. Vazifaning qiyinlik darajasi shunday bo'lishi kerakki, mavjud bilimlar va harakat usullari yordamida o'quvchilar uni bajara olmaydilar, ammo bu bilimlar mazmuni va topshiriqni bajarish shartlarini mustaqil tahlil qilish uchun etarli bo'ladi.

Bunday darslar qobiliyatlarni, fikrlashni va, albatta, shaxsiyatni maksimal darajada amalga oshirishga yordam beradi. Psixologik qulaylik printsipli shundan

iboratki, muammoli dars o'quvchilarga shaxsiy yondashuvni nazarda tutadi. Har qanday o'quvchi darsning istalgan bosqichida, istalgan shaklda o'zini isbotlashi, qobiliyatini namoyon qilishi, g'ayrioddiy fikr bildirishi mumkin. U har doim eshitiladi, tushuniladi, qadrlanadi, chunki muammoli darsning asosiy vazifasi taxminlar va echimlarni topish usullarini ilgari surishdan iborat. Muvaffaqiyatli vaziyat shunday yaratiladiki natijada o'rganishni insonparvarlashtirish amalga oshiriladi.

### **Muammoli vaziyatni yaratish texnikasi.**

#### **Sitologiya asoslari**

1. Ma'lumki, yotoqxonada juda ko'p o'simliklar bo'lmasligi kerak, chunki bu xonadagi kislorod rejimini yomonlashtiradi. Ma'lumki, fotosintez jarayonida o'simliklar kislorod chiqaradi va u bilan atrofdagi havoni boyitadi. Bu faktlar sizga qarama-qarshi ko'rinxaymaydimi? Nega?
2. Faraz qilaylik, hujayraning tarkibini tashqi muhitdan butunlay ajratib turadigan hodisa mavjud. Buning qanday foyda va qanday qiyinchiliklar bor? Ushbu hodisa hujayraning o'zi uchun qanday oqibatlarga olib keladi?
3. Nima uchun assimilyatsiya va dissimilyatsiya hujayradagi moddalar va energiya almashinuvining yagona jarayonining ikki tomoni hisoblanadi?
4. Qaysi oziqlanish foydaliroq - avtotrof yoki geterotrof?
5. Agar plazmatik membrana tarkibida oqsillar bo'lmasa, qanday vazifalarni bajara olmas edi?
6. Nima uchun viruslar tirik organizmlar deb tasniflangan, lekin alohida podshohlikka berilgan?

#### **Organizmlarning ko'payishi va individual rivojlanishi**

1. Nima uchun mitoz natijasida hosil bo'lgan ikkita qiz hujayraning genetik materiali mutlaqo bir xil?
2. Nima uchun uzoqroq bo'lsa-da, to'liq o'zgarish bilan rivojlanish ko'plab hasharotlarga xosdir?
3. Nima uchun jinsiy hujayralar xromosomalarning diploid to'plamidan ko'ra gaploidga ega bo'lishi kerak?

4. Urug'lantirishning biologik ahamiyati nimada?
5. Nima uchun gulli o'simliklarda urug'lanish qo'sh deb ataladi?
6. Jinsiy ko‘payishning jinssiz ko‘payishdan evolyutsion afzalliklari nimada?
7. Nima uchun partenogenetik rivojlanishni organizmlarning jinssiz ko‘payishi oqibati deb bo'lmaydi?
8. Ontogenez bosqichlarida organizmnning rivojlanishini tartibga solish xususiyatlari qanday?

### **Genetika asoslari**

1. Nima uchun G.Mendel tadqiqot uchun no‘xatni tanladi?
2. Nima uchun G.Mendel genetika asoschisi hisoblanadi?
3. Dominantlik turlarini o'rganish qanday amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin?
4. T.Morgan tajribalari natijalari Mendelning uchinchi qonunini inkor etadimi?
5. Mutatsiyalarning biologik va amaliy ahamiyati nimada?

### **Inson genetikasi**

1. Nima uchun odamning irsiyatini tekshirish qiyin?
2. Nega yaqin qarindoshlar nikohi tan olinmagan?
3. Nima uchun hamma odamlarni qarindosh deb aytishimiz mumkin?

### **XULOSA**

Darsda muammoli ta'lidan foydalanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, u o'quvchilarning bilim faolligini shakllantirishga yordam beradi, o'quv materialini chuqur o'zlashtirishni ta'minlaydi va o'quvchilarni rivojlantirishning samarali vositasidir. Muammoli ta'lim texnologiyasining afzalliklari: u nafaqat o'quvchilarning zarur bilim, ko'nikma va malakalar tizimini egallashiga, balki ularning aqliy rivojlanishining yuqori darajasiga erishishga, ularda mustaqil ravishda o'zlashtirish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Bilim o'z ijodiy faoliyati orqali; ta'lim ishlariga qiziqishni rivojlantiradi, doimiy ta'lim natijalarini ta'minlaydi.

Muammoli ta'lim texnologiyasining kamchiliklari: rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun ko'p vaqt sarflanishi, o'quvchilarning bilim faolligini nazorat qilishning yomonligi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirzayeva, N. A. (2020). RELEVANCE AND PEDAGOGICAL BASIS DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL COMPETENCE IN STUDENTS.*Science and Education*, 1(7).
2. Анора Қайруллаевна Рахматуллаева БИОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ЛАБОРАТОРИЯ МАШФУЛОТЛАРИНИНГАҲАМИЯТИ // Academic research in educationalsciences. 2020. №3.
3. Urinboyeva Nilufar Akromjon qizi, Rakhmatullayeva Anor Kairullayevna INCREASING STUDENT NATURAL LITERACY REQUIREMENTS FOR STEAM APPROACH //International Conference onHumanities, Education and SciencesLos Angeles, California, USAFebruary 25th 2022conferencezone.org. 104-112.
4. Urinboyeva Nilufar Akromjon qizi , Rakhmatullayeva Anora Kairullayevna 7TH GRADE ZOO LOGY IN THE DEPARTMENT OF "SIMPLE ANIMALS" LEARNING USING MODERN ELECTRONIC RESOURCES. London Conerence Proceedings 2021. International Conerence on Humanities, Education and Sciences December 15th, 2021. 153-156

<http://nsportal.ru>

<http://murzim.ru/nauka/pedagogika>

<http://www.imc-new.com>



**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJODIY TAFAKKURNI  
TARBIYALASHNING PEDAGOGIK PISIXOLOGIK ASOSLARI**

Hamidova Hulkaroy Shodijonovna

+998999360420

Farg'ona shahar 32-o'rta ta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annatatsiya:** Bugungi maktab bolasidan aniq emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar va tengdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bola maktabga qadam qo'yayotganiga qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki, uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashishi ko'nikmasi, voqeа - hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi. Shu sababdan, ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini tarbiyalashga qaratilgan fikrlar keltirib o'tilgan. Pedagogik-psixologik omillarni ona tili ta'limi jarayoniga tatbiq etish orqali maqola mazmuni yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kognitivizm, bixevoiristik yondashuv, kognitiv yondashuv, verballik, ijodiy tafakkur, pedagogik-psixologik omil

Rivojlanayotgan mamlakatlarda umumiy pedagogika va ta'lim psixologiyasi oldida turgan muhim masalalardan biri nafaqat bilimli, balki ijodiy tafakkur sohibi bo'lgan shaxsni shakllantirish vositalarini izlash hisoblanadi.

Inson faoliyatini baholashda kognitivizm: ya'ni bu so'z inglizchadan olingan bo'lib "Cognitive" ta'limiy, o'rganilgan, o'zlashtirilgan degan ma'noni anglatadi va u 60-yillarigacha pedagogika va psixologiyada hukmron bo'lgan bixevoiristik yondashuvdan quyidagicha farqlanadi: bixevoiristik yondashuvda bola xatti-harakatilarini tashqi muhit ta'siri bilan belgilanadigan, ko'p hollarda ongsiz reaksiyalar jamlanmasi sifatida tushunilsa, kognitiv yondashuvda xatti-harakatilarda onglilik ta'lim asosida hosil qilingan malaka va ko'nikmalar ustunligi tan olinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matn tuzishni o'rgatish alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon hozirgi vaqtida birinchi navbatda kommunikativ yondashuv xususiyatlarni o'zida aks ettirmog'i darkor. Kommunikativ yondashuvga ko'ra nutq muayyan maqsadni ro'yobga chiqarish, kimgadir ma'lumot berib, kimdandir ma'lumot olish, fikr almashish asosida harakatga keltiriladi.

Onglilik, kognitivlik, verballik, kashfiyotchilik, hozirgi vaqtida ta'lim jarayonining faol sub'yekti, ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashning asosiy pedagogik-psixologik omillari sanaladi.

Pedagogik-psixologik omillarni ona tili ta’limi jarayoniga tatbiq etishning quyidagi usullari mavjud:

1. O‘quvchi darslik talabi asosida unga berilgan bilimlarni takrorlash emas, balki o‘qituvchining yo‘llanmasi bilan yangi bilimlar hosil qilishi, reproduktiv emas, ijodiy tafakkurning yuksalishiga erishishi kerak.
2. O‘quvchi darsda nofaol tinglovchi emas, balki izlanuvchi, taqqoslovchi, kashfiyotchi bo‘lishi kerak. Shuning o‘quvchining javobi darslik yoki o‘qituvchi ma’lumotigina emas, balki o‘zining shaxsiy fikri sifatida bo‘lmog‘i kerak.
3. O‘qituvchining beradigan yo‘llanmasi sinfdagi o‘quvchilarga yaratilgan imkoniyatlardan tizimi mohiyatan bir yo‘nalishda bo‘lsa-da, ammo ular shaklan va mazmunan rang-barang bo‘lishi kerak. Shundagina o‘quvchi o‘zligini, nutqiy qobiliyatini va shaxsiy iqtidorini mumkin qadar erkinroq ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi va shunday tashkil qilingan har bir o‘quv mashg‘ulotida babs-munozara ruhi boshchilik qiladi.
4. Dars vaqtida (uy vazifasini bajarib, darsda tahlil qilishda) o‘qituvchi yo‘llanmasi asosida ishslash, fikr qilish, masalaning yechimini topish va biror hukmga kelish uchun u o‘z fikrini asoslash va isbotlashga, himoya qilishga intilishi kerak. O‘quv mashg‘ulotining tashkil etilishi va o‘quv materiali bunga keng yo‘l ochib beradigan bo‘lishi, bolaning yosh psixologiyasi va intellektual qobiliyatiga mos bo‘lishi kerak.

Hozirgi paytda ona tili ta’limi sohasida ongli verbal-kognitiv ta’lim tizimidan foydalanish muhimdir. Ongli verbal-kognitiv ta’lim usullarini o‘qituvchilar orasida keng targ‘ib qilish – ijodiy tafakkurni shakllantirishning eng muhim shartidir. Ongli verbal-kognitiv ta’limni qo‘llash orqali dars samaradorligini oshirish uchun o‘quvchilar qo‘shimcha axborot manbalari bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak. Izohli lug‘at, ma’nodosh so‘zlar lug‘ati, iboralar lug‘ati, zid ma’noli so‘zlar lug‘ati, olinma so‘zlar lug‘ati, shakldosh so‘zlar lug‘ati, o‘zakdosh so‘zlar lug‘ati, electron o‘quv adabiyotlar shular jumlasidandir. Hozirgi davrda ta’lim samaradorligiga erishish uchun ona tili darslarida o‘qituvchilar oldiga quyidagi vazifalar qo‘yilgan:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lug‘atini, ijodiy tafakkur doirasini, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish, muammoli ta’lim metodlari, zamonaviy o‘quv – texnika vositalaridan foydalaniib, o‘quvchi bilimini DTS talablari darajasiga ko‘tarish;
2. Mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirishning zamonaviy usul va vositalarini bilish va uni amaliyatga qo‘llash;
3. O‘quvchini mantiqiy va ijodiy fikrlashga o‘rgatib, matn tuzishga tayyorlash;

4. O‘quvchini matn turlarini farqlashga o‘rgatish. Masalan: nasriy, ilmiy, badiiy, nazmiy, grammatik, ma’rifiy, publitsistik, badiiy-ramziy, xat-hujjat, monologik, dialogik, test-nazoat, axborot-muloqot va h.k.
5. O‘quvchilarda musiqa, turli mazmundagi chizmalar, rasm-tasvir, kommunikativ jadvallar asosida matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirish;
6. Berilgan matnni tahlil va tahrir qilish (mazmun va maqsad, vazifasiga ko‘ra matnning tili va uslubi, imlo savodxonligi, janri, tarkibi);
7. O‘quvchi matnga sarlavha tanlashi, matnda qo‘llangan so‘z birikmalari va gaplarni shaklan va mazmunan o‘zgartira olishi, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga ma’nodosh, uyadosh, zid ma’noli so‘zlarni topish, uzning semantik strukturasidagi ijobjiy va salbiy ma’no nozikliklarini ko‘paytirishi va kamaytira bilishi, hukm va xulosalar chiqarishi;

Ona tili darslarida o‘quvchilarga matn ustida ishslash topshiriqlarini berishdan asosiyligini shundan iboratki, u mazkur topshiriqlarni bajarish jarayonida til imkoniyatlaridan foydalanishning turli xil usul va vositalari bilan tanishadi, o‘z fikrini ifodalash uchun unga mos so‘zni tanlaydi, shu so‘zning ma’no guruhlari ustida ishslash, uning boshqa so‘zlar bilan birikish qobiliyatini aniqlashga o‘rganadilar.

O‘quvchi o‘zi tuzadigan jumlaning urg‘u berilishi kerak bo‘lgan asosiyligini tarkibiy qismlarini aniqlashi, uni bir joyga to‘plashga urinishi, nutqiy vaziyatga qarab fikr yuritish, so‘z tanlashni, fikrni ixcham va ravon ifodalash, gap qurishni, mustaqil matn yaratish malakalarini egallahsga harakat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matn yaratish ko‘nikmalarini samarali shakllantirishning yana bir ishonchli ijtimoiy-psixologik omillaridan yana biri – muomala va muloqot madaniyatini to‘g‘ri tarkib toptirish, bu texnikani o‘zida ongli va to‘g‘ri shakllantirish bo‘lib, bu “texnikaning yo‘qligi” boshlang‘ich sinf o‘quvchisida odamovilik, xavotir, hadiksirash, muloqotda qochish kabi salbiy xususiyatlarni keltirib chiqarishi bilan bir qatorda mustaqil fikrlashi, o‘z fikrini himoya qilishi, muloqot erkinligi, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ifodalash, matn yaratish qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

O‘quvchilarda mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishda ilmiymadaniy muloqot va unga o‘rgatuvchi interfaol metodlar –ijtimoiy psixologik treninglardan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sariyev Sh. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishslash orqali nutq o‘stirish (metodik qo‘llanma) —T.: Yurist-media markazi, 2010. –76 6.

2. Safarova R. V-VI sinf ona tili darslarida lug'at boyligini oshirish asosida o'quvchilar nutqini o'stirish – T.: O'zPFITI, 1994. -32 b
3. Ikromova R. va boshq. Ona tili: 4-sinf uchun darslik (R.Ikromova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, D.Shodmonqulova). 9-nashri. –T:O'qituvchi nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.

## AVTOMATLASHTIRILGAN AXBOROT TIZIMI BPMN SXEMASI

### Bahromov Ramziddin Faxriddin o'g'li

#### **ANNOTATSIYA**


Ushbu maqola hozirgi kunga kelib modellashtirish va loyiha ishlab chiqishda qoyiladigan masalaning biznes jaryonlarni yortib berish uchun BPMN dunyo standartlariga mos bo`lgan shakil asosida yoritib berishga harkat qilaman.

**Kalit so'zlar:** jarayonlar, ish beruvchi omil, VPN


Har bir biznes jaryonlarni birinchi ummumiy holda ko`rib chiqamiz va har bir ichki biznes jaryonlarni yortib boramiz.

Qurilish kompaniyalariga ish beruvchi tomonidan berilgan ishlarni qonunchilik asosida qurilish ishlarni, sifatnini va o`z vaqtida amalga oshirish monitoring qilish biznes jaryonlarni o'z ichga oladi.


Qurilish kompaniyalari ish yuritishga oid hujjatlarni elektron tarzda yuritlishni amalga oshirish asosiy dolzarb muamoni hal qilish ko`zda tutilgan.




2.2.1-rasm. Umumiy ko'rinshdagi biznes jaryonlar




**2.2.2-rasm.QQI banki ichki biznes jaryonlari.**




**2.2.3-rasm. QQI banki ichki biznes jaryonlari.**



2.2.4-rasm. QQI banki va mijozlari bilan birligida qurilgan jaryonlari.



#### 2.2.5-rasm. QQI banki ichki biznes jaryonlari.



## 2.2.6-rasm. QIQI banki ichki biznes jaryonlari.

Quyidagi biznes jaryonlarning amalga oshinda O’zbekiston standart bo’iycha ishlab chiqilgan qog`oz shakil namunalarni ilovda ko`rsatib o`tilaman.

## THE CONDITIONS OF ECONOMIC DEVELOPMENT MODERN VIEWS OF EMPLOYMENT

**Turakhujaev Zayniddin**

Data Pro" The Director of the Limited Liability Company

**Abstract:** Rapid development of technology the increase in employee mobility and the emergence of new jobs in terms of quality lead to be. The current stage of development of the world economy with work modern forms of employment, in particular, remote employment it requires development. Therefore, in this article The Republic of Uzbekistan possibilities of using modern forms of employment

**Keywords:** digital economy full satisfaction of consumer, E-commerce goods and prevention of crises, accelerates the turnover

In the [economics](#) study of the [public sector](#), **economic and social development** is the process by which the economic [well-being](#) and [quality of life](#) of a nation, region, local community, or an individual are improved according to targeted goals and objectives.

The term has been used frequently in the 20th and 21st centuries, but the concept has existed in the West for far longer. "[Modernization](#)", "[Westernization](#)", and especially "[industrialization](#)" are other terms often used while discussing economic development. Historically, economic development policies focused on industrialization and [infrastructure](#), but since the 1960s, it has increasingly focused on poverty reduction.

Whereas economic development is a [policy](#) intervention aiming to improve the well-being of people, [economic growth](#) is a phenomenon of market [productivity](#) and increases in [GDP](#); economist [Amartya Sen](#) describes economic growth as but "one aspect of the process of economic development". Economists primarily focus on the growth aspect and the economy at large, whereas researchers of [community economic development](#) concern themselves with [socioeconomic](#) development as well.

Economic development originated in the post-war period of reconstruction initiated by the United States. In during his inaugural speech, President Harry Truman identified the development of undeveloped areas as a priority for the west: "More than half the people of the world are living in conditions approaching misery. Their food is inadequate, they are victims of disease. Their economic life is primitive and stagnant. Their poverty is a handicap and a threat both to them and to more prosperous areas. For the first time in history humanity possesses the knowledge and the skill to relieve the suffering from these people ... I believe that we should make available to peace-loving peoples the benefits of our store of technical knowledge in order to help them realize their aspirations for a better life... What we envisage is a program of development based on the concepts of democratic fair dealing ...

Greater production is the key to prosperity and peace. And the key to greater production is a wider and more vigorous application of modern scientific and technical knowledge."

There have been several major phases of development theory since 1945. Alexander Gerschenkron argued that the less developed the country is at the outset of economic development (relative to others), the more likely certain conditions are to occur. Hence, all countries do not progress similarly.<sup>[10]</sup> From the 1940s to the 1960s the state played a large role in promoting industrialization in developing countries, following the idea of modernization theory. This period was followed by a brief period of basic needs development focusing on human capital development and redistribution in the 1970s. Neoliberalism emerged in the 1980s pushing an agenda of free trade and removal of import substitution industrialization policies.

In economics, the study of economic development was borne out of an extension to traditional economics that focused entirely on national product, or the aggregate output of goods and services. Economic development was concerned with the expansion of people's entitlements and their corresponding capabilities, morbidity, nourishment, literacy, education, and other socio-economic indicators. Borne out of the backdrop of Keynesian economics (advocating government intervention), and neoclassical economics (stressing reduced intervention), with the rise of high-growth countries (Singapore, South Korea, Hong Kong) and planned governments (Argentina, Chile, Sudan, Uganda), economic development and more generally development economics emerged amidst these mid-20th century theoretical interpretations of how economies prosper. Also, economist Albert O. Hirschman, a major contributor to development economics, asserted that economic development grew to concentrate on the poor regions of the world, primarily in Africa, Asia and Latin America yet on the outpouring of fundamental ideas and models.

It has also been argued, notably by Asian and European proponents of infrastructure-based development, that systematic, long-term government investments in transportation, housing, education, and healthcare are necessary to ensure sustainable economic growth in emerging countries.

During Robert McNamara's 13 years at the World Bank, he introduced key changes, most notably, shifting the Bank's economic development policies toward targeted poverty reduction. Prior to his tenure at the World Bank, poverty did not receive substantial attention as part of international and national economic development; the focus of development had been on industrialization and infrastructure. Poverty also came to be redefined as a condition faced by people rather than countries. According to Martha Finnemore, the World Bank under McNamara's tenure "sold" states poverty reduction "through a mixture of persuasion and coercion.

## **Роль сосудистого эндотелального фактора роста -А в развитии агрессивных аденом гипофиза**

**Азимова Озода Талатовна**

2-й курс кандидат медицинских наук Республиканского  
специализированного научно-практического медицинского центра  
эндокринологии имени академика Туракулова Ю.Х. Ташкент, Узбекистан

**Халимова Замира Юсуповна**

Профессор, д.м.н., проректор научных ярмарок Республиканского  
специализированного научно-практического медицинского центра  
эндокринологии имени академика Туракулова Ю.Х. Ташкент, Узбекистан

**Введение:** Хотя аденомы гипофиза считаются доброкачественными, некоторые имеют инвазивный рост, что является одним из показателей агрессивности. Ранние прогностические маркеры агрессивности могут влиять на улучшение качества жизни у пациентов с агрессивными аденомами гипофиза



Цели: Изучить клинико-иммунологические, молекулярно-генетические аспекты агрессивных аденом гипофиза и разработать новые подходы к ранней диагностике и лечению.

**Материалы и методы.** Обследовано 80 пациентов с диагнозом аденома гипофиза. Все пациенты прошли клиническое обследование и магнитно-резонансную томографию (МРТ), чтобы определить степень инвазии аденомы по классификации Кнопса (1993г). Полиморфизм областей исследуемых генов в гене VEGFA G634C положения (локус rs2010963), гене HIF-1 $\alpha$  C/T (локус rs11549465) выполненный аллельным методом - определяется методом ПЦР.

**Результаты:** генетический анализ полиморфизма VEGFA показал, что мутация гетерозиготы (G/C) у пациентов с инвазивными аденомами оказалась вдвое выше 31,7% (n = 17,2) по сравнению с контрольной группой 13,7% (n = 13). Кроме того, гомозиготная мутация C/C также наблюдается больше в группе 7,7% пациентов с инвазивной аденомой (n = 4), что подтверждает доказательства того, что механистическое прогрессирование инвазивных аденом способствует мутации ангиогенеза через путь VEGFA. Гетерозиготная мутация C/T гена HIF-1A была значительно выше ( $p = 0,02$ ) у пациентов с инвазивными аденомами по сравнению с контрольной группой, с 25% (n = 13) и 9,8% (n = 8) соответственно. В то время как в неинвазивных аденомах эта мутация наблюдалась примерно в три раза ниже. Наши результаты ясно подтверждают аргумент в пользу регуляторной роли HIF-1A в VEGFA в развитии агрессивного потока аденомы гипофиза.

**Выводы:** Таким образом, генетический анализ может стать предиктором агрессивного поведения аденом гипофиза и использование генетических маркеров в клинической практике будет способствовать профилактике осложнений агрессивных аденом.

### **BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INTERFAOL**

#### **METODLARDAN FOYDALANISH**

**Rahimova Umidaxon Sotvoldiyevna**

Farg'ona shahar 32-o'rta ta'lif maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annatatsiya:** Hozirgi vaqtda ta'lif jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish

jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

**Kalit so'zlar:** tahlil qilish, nutq o'stirish, o'quv moddiy sharoiti, interfaol metod, ta'lim samarasi, rag'batlantirish, boshlang'ich ta'lim.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlanadirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol o'yinlarning asosiy turlari: intellekual (aqli) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi. Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi.

Ayniqsa, unda atrof –muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ta'lim – tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turi yo'lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, interfaollikka asoslangan didaktik o'yinlardan foydalananish maqsadga muvofikdir. Interfaol o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilarda tahlil qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlanadiradi. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'zin turlarini tasniflashga ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi.

Bularning bari o'quvchilarga fanlararo bog'liqlikni o'rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to'liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlanadirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, interfaol metodlardan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil etish bugun yaxshigina samara berib kelayotganini ko'rish mumkin.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi

shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- +ta'lim samarasi yuqoriqoq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- +ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- +ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- +ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- +ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- +amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- +ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdag'i ta'lim muassasalarida, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri echimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar

orqali tahlil etilganda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi

Adabiyotlar:

1. Abduqudusov O.A. v.b. “Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari”. – Toshkent, 2011.
2. Lyamin V.T. Integratsiya darslari va ularga sharhlar. «Boshlang‘ich maktab» jurnali. – Toshkent, 2000.
